

MUNDARIJA

		BET
	KIRISH	3
I BOB	Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning nazariy asoslari.....	8
1.1.	Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning mohiyati	8
1.2.	Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni va ishlab chiqarish bo'g'inlarini boshqarish.....	11
1.3.	Ishlab chiqarishning klaster usuli innovatsion iqtisodiyotning asosiy yo'nalishi sifatida.....	15
1.4.	Ishlab chiqarishni tashkil qilish va korxonani boshqarishda rahbarning tutgan o'rni.....	23
II bob	«O'zbekneftegaz» DXK SP-1 korxonasining tashkiliy texnik tavsifi va iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....	28
2.1.	O'zbekneftegaz» DXK SP - 1 korxonasiga tashkiliy – texnik tavsifi va boshqaruv strukturasi tahlili	28
2.2.	«O'zbekneftegaz» DXK SP - 1 korxonasining 2016 -2018 yillardagi asosiy texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlarining tahlili.....	34
2.3.	«O'zbekneftegaz» DXK SP - 1 korxonasida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etilishining tahlili.....	44
III bob	«O'zbekneftegaz» DXK SP-1 korxonasida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish	56
3.1.	«O'zbekneftegaz» DXK SP-1 korxonasida ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirish...	56
3.2.	«O'zbekneftegaz» DXK SP-1 korxonasining rentabelligini oshirish yo'llari.....	61
	X U L O S A V A T A V S I Y a L A R.....	71
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET SAYTLARI RO'YXATI.....	72

Kirish

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston iqtisodiyotining istiqbolga mo'ljallangan asosiy vazifa va ustuvor yo'nalishlari avvalo bu sohaning yuqori sur'atlar bilan o'sib borishini ta'minlash, buning uchun esa mavjud barcha rezerv va imkoniyatlarni safarbar etish borasida qabul qilingan strategiyani davom ettirishga qaratilgan.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustaxkamlash, xavfsizlik va xuquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda konun ustivorligini, inson xuquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bagrikenglik muxitini ta'minlash uchun muxim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lini chuqur taxlil qilar ekanmiz, bugungi kunda ham jaxon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani, davlatimizni yanada barqaror va jadal suratlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondoshuv hamda tamoyillarni ishlab chiqishni va zamonaviy ishlab chiqarishni joriy etishni zarur ekanligini ko'ramiz.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama, jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratib, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha soxalarini liberallashtirish bo'yicha ustivor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida Prezident SHavkat Mirziyoyev 2017-yil 7-fevral kuni „O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida“gi farmonni imzoladi. Ushbu farmon asosida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasidagi asosiy yo'nalishlaridan biri sanoat korxonalarini iqtisodiy samaradorligini ta'minlashdir. Ishlab chiqarish korxonalari oldiga

qo'yilgan vazifalarini bajarish uchun o'z faoliyatini tashkil etilishini va muvofiqlashtirishni yangi bosqichga ko'tarishni talab etadi. Bu vazifa esa ma'lum tamoyillar asosida amalga oshiriladi.

Har qanday jamiyatda ham ijtimoiy korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish milliy iqtisodiy taraqqiyotning asosini yaratadi. SHu sababli ham, iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida korxonalarda ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish jiddiy masalalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi paytda ko'pgina resurslar chegaralangan, ularning aksariyati (metall, qurilish materiallari va boshqalar) xorijdan keltiriladi. SHuning uchun mavjud resurslardan oqilona foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, milliy va xorijiy sarmoyalarni ustuvor soxalarga joylashtirish kabi samaradorlikni oshirish vositalariga yetarli darajada e'tibor berish talab qilinadi.

Korxonalarda ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi - murakkab kategoriyadir. Unda korxonalarda ishlab chiqarish natijalariga hamda, harajatlariga ta'sir ko'rsatuvchi omillar mujassamlangandir. Fan va texnika shiddatli rivojlanayotgan hozirgi sharoitida, korxonalarda ishlab chiqarish vositalarini amaliyotga kiritish iqtisodiy samara bilan bir qatorda og'ir jismoniy mehnatni mashinalar mehnati bilan almashtirish, korxonalarda ishlab chiqarishda shikastlanish va kasb kasalliklarini bartaraf etish, fondlar va energiya bilan ta'minlanish darajasini oshirish, yuqori malaka talab qiladigan va manfaatdorlikni oshiradigan jozibali kasblarga talabni paydo qilish, hamda mavjud kasblarga yoshlarda rag'bat o'yg'otish va boshqa ijtimoiy muammolarni ham hal etishi lozim.

Insonni har tomonlama yetuk (barkamol) qilish uchun zamin yaratishni maqsad qilib qo'ygan jamiyatning pirovard maqsadi ijtimoiy samaradorlik mezonidir. Buning uchun esa korxonalarda ishlab chiqarishda va boshqa sohalaridagi barcha asosiy va yordamchi jarayonlar belgilangan tartibga soluvchi tamoyillar asosida olib borilishi kerak.

Rivojlangan mamlakatlarning rivojlanish tarixini o'rganganimizda shu narsa ma'lum bo'ldiki, ular turli investitsiyalarni ishlab chiqarishga faol kiritib borish orqali o'z iqtisodiyotini yuksak templar bilan rivojlantirishga erishganlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2018 yilning 28-dekabrida 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham ushbu soxaga alohida to'xtalib shunday dedilar: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan"¹. SHuningdek, Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyev ushbu Murojaatnomasida: "Bugungi kunda yurtimizda, chet el investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard dollarlik 456 ta loyiha amalga oshirilmoqda"²- deb ta'kidlab o'tdilar. Bundan ko'rinib turibdi, hozirgi kundagi asosiy dolzarb vazifamiz, ushbu investitsiyalardan samarali foydalanish uchun korxonalarda ishlab chiqarishni samarali tashkil etish va boshqarishdir.

Agar yuqorida keltirilgan vazifalarimizdan kelib chiqib aytish mumkinki, hozirgi O'zbekistondagi tashqi muxitning yuqori sur'atlar bilan o'zgarib borishi sharoitida ijtimoiy zamonaviy ishlab chiqarish samaradorligini oshirish milliy iqtisodiy taraqqiyotning asosini yaratishdir.

Oldimizga quyilgan ushbu vazifalarni samarali bajarish esa ko'plab omillarga bevosita bog'liq bo'ladi. Yuqorida bayon etilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, Bitiruv malakaviy ishimiz uchun tanlab olingan "Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari" ("O'zbekneftegaz" Davlat Holding kompaniyasi tarkibida faoliyat ko'rsatadi «1-korxonasi » misolida) mavzusi, hozirgi kunda iqtisodiyot va boshqarish fani oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi, iqtisodiyotning real sektori korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari izlab topish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishni boshqarishning ahamiyatini oshirish yo'llari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Ushbu masalalarni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy vazifalarni bajarishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik:

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. www.turkiston.uz

² O'sha yerda.

- Korxonalarni modernizatsiya qilishning mohiyati va vazifalari;
- Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishning nazariy asoslari;
- Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashning me'yoriy asoslari;
- «O'zbekneftegaz» Davlat Holding Kompaniyasiga qarashli SP 1-korxonasining iqtisodiy – texnik tavsifi;
- «O'zbekneftegaz» Davlat Holding Kompaniyasiga qarashli SP 1-korxonasining 2016-2018 yillardagi texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari taxlili;
- «O'zbekneftegaz» Davlat Holding Kompaniyasiga qarashli SP 1-korxonasida ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonlarining tahlili;
- «O'zbekneftegaz» Davlat Holding Kompaniyasiga qarashli SP 1-korxonasida ishlab chiqarishni zamonaviy usullarini tashkil etishni takomillashtirishda xorijiy tajribalardan foydalanish;
- «O'zbekneftegaz» Davlat Holding Kompaniyasiga qarashli SP 1-korxonasi ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishga xodimlarda ijobiy munosabatlar uyg'otish yo'llari;
- Yakuniy xulosa qilish va tavsiyalar berish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti - «O'zbekneftegaz» Davlat Holding Kompaniyasiga qarashli SP 1-korxonasida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning asosiy yo'nalishlarini izlab topish bo'yicha chora – tadbirlar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti – iqtisodiyotning real sektori korxonalarini ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning asosiy yo'nalishlarining nazariy asoslarini o'rganish va ishlab chiqarishni tashkil etishni zamonaviy usullarini izlab topish bo'yicha chora – tadbirlar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev asarlari va sanoat korxonalarda ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini tashkil etish sohasidagi Vatanimiz va xorijdagi olimlarning ilmiy ishlari hisoblanadi.

Mazkur ilmiy tadqiqotlarda ushbu masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Qonunlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va «O'zbekneftgaz» Davlat Holding Kompaniyasiga qarashli SP 1- korxonasining arxiv, moliyaviy va statistik hisobotlaridagi ma'lumotlardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangilik elementlari quyidagilardan iborat:

- korxonalarni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishni boshqarishning ahamiyati va uni rivojlantirishning nazariy asoslari ko'rsatib berilgan;
- korxonalarni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishni boshqarishning ahamiyatini oshirish tizimini yaratish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqilgan;
- mazkur masalaning yechimi bo'yicha aniq va ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ahamiyati shundan iboratki, ularning asosiy natijalaridan foydalanib korxonalarni modernizatsiya qilishda va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishda boshqarishning ahamiyatini oshirish tadbirlari, ularni tahlil qilish va oshirish bo'yicha ilmiy asoslarini o'rganish va xulosa chiqarishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi quyidagicha: kirish, asosiy mazmunni ifodalovchi sakkizta savol, xulosa va tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar va web saytlar ro'yhati. Bitiruv malakaviy ishida sxemalar, jadvallardan foydalanilgan bo'lib uning mazmunini keng ochib berish imkonini beradi va Bitiruv malakaviy ishi ____ saxifadan iborat.

I bob. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning nazariy asoslari

1.1. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning mohiyati

Korxonalarda ishlab chiqarish – bu, jamiyat a’zolarining yashashi, mamlakatning rivoji, taraqqiyoti uchun zarur bo’lgan moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratish jarayonidir. Kishilik jamiyati taraqqiyotining hamma bosqichlarida korxonalarda ishlab chiqarish bo’lgan va kelgusida ham bo’ladi. Jamiyat iste’mol qilmasdan tura olmaganidek, ishlab chiqarmasdan ham tura olmaydi. Korxonalarda ishlab chiqarish jamiyat miqyosida ro’y beradi. Nazariyotchi olim va mutaxassislar jamiyat bilan bog’lanmagan korxonalarda ishlab chiqarish bo’lishi mumkin emasligini, korxonalarda ishlab chiqarish doimo muayyan tarixiy va ijtimoiy ekanligini ilmiy ravishda isbotlab berganlar.

Korxonalarda ishlab chiqarish jamiyat miqyosida ro’y bergani tufayli uni ijtimoiy korxonalarda ishlab chiqarish deb ataydilar.

Ijtimoiy korxonalarda ishlab chiqarish o’zining bir-birini taqozo qiluvchi ikki tomoni – ishlab chiqaruvchi kuchlar va korxonalarda ishlab chiqarish munosabatlari bilan ifodalanadi. Ularning birligi korxonalarda ishlab chiqarish tashkil etadi.

Ijtimoiy korxonalarda ishlab chiqarish jarayon sifatida rivojlanadi va takomillashib boradi. Korxonalarda ishlab chiqarish jamiyatning taraqqiyotini, ijtimoiy tuzilishini, g’oyaviy qarashlarini, siyosiy tashkilotlarini belgilab beradi. Ijtimoiy korxonalarda ishlab chiqarishning harakteri, tavsifi asosida jamiyat ustqurmasi tashkil topadi. Ijtimoiy korxonalarda ishlab chiqarishning harakteri ish kuchi bilan korxonalarda ishlab chiqarish vositalarining qo’shilish harakteriga qarab belgilanadi. Korxonalarda ishlab chiqarishning ijtimoiy shakllari qanday bo’lsa ham, xodimlar va korxonalarda ishlab chiqarish vositalari hamisha shu korxonalarda ishlab chiqarishning omillari bo’lib qolaveradi. Umuman, korxonalarda ishlab chiqarish uchun ular qo’shilishi kerak. Ijtimoiy tuzumning ayrim iqtisodiy davrlari ana shu

qo'shilishning alohida xususiyatiga va qanday usul bilan amalga oshirilishiga qarab bir-biridan farq qiladi.

Korxonalarda ishlab chiqarish muayyan korxonalarda ishlab chiqarish usuliga xos ob'ektiv iqtisodiy qonunlarga muvofiq taraqqiy etadi. Korxonalarda ishlab chiqarishning rivojlanishi, avvalo, mehnat qurollarining o'zgarishi va mukamallashishi bilan kishilarning korxonalarda ishlab chiqarish munosabatlarida ham o'zgarish sodir bo'ladi. Bu jarayonda insonlar o'rtasidagi munosabatlar kengayadi va chuqurlashadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida investitsiyalarning alohida o'rni bor, ular davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o'rin egallaydi. Bugungi kunda biz sanoatni rivojlantirmasdan turib iqtisodiyotimizning kelajagini ta'minlay olmaymiz. Sanoat korxonalarda ishlab chiqarishi sohasi ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirishda, aholini ish bilan ta'minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda eng asosiy omillardan biri hisoblanadi hamda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo'lgan mulkdorlar sinfining, ya'ni o'rta sinfning shakllanishi va mustahkamlanishini ta'minlaydi. Buning uchun esa xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilishni amalga oshirishimiz kerak. Ushbu maqsadda mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to'la namoyon etish chora – tadbirlar, “Yo'l haritalari” ishlab chiqilishi kerak.

O'zbekiston iqtisodiyotiga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin.

Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarida biznes sub'ektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferentsiyalar berishni tashkiliy va huquqiy jihatdan tartibga solish lozim.

Birinchi navbatda, eksportga mahsulot chiqarayotgan, innovatsion va yuqori texnologik ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan tadbirkorlarga va chet ellik

investorlarga shunday imkoniyat yaratish kerak. SHuning uchun ham mamlakatimiz Prezidenti SHavkat Mirziyoyev tomonidan 2019 yil «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanishi yili» deb nomlandi.

Sanoat korxonalarda ishlab chiqarishining milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muhitini ta'minlash, iste'molchilar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, yangi ish o'rinlarini yaratish va bandlikni ta'minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy inqilobni jadallashtirish, resurslarni korxonalarda ishlab chiqarishga safarbar etish, soliq tushumlari hajmining o'sishini ta'minlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi.

Korxonalarda ishlab chiqarishning rivojlanishini ta'minlash uchun uni tashkil etish va boshqarish, uning kelajagini bashorat qilish, hozirgi ahvolini tahlil etish va natijalarini hisob-kitob qilish kerak bo'ladi.

«Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etish» tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak: «Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etish» - bu, jonli mehnat jarayoni bilan korxonalarda ishlab chiqarish elementlari (mashina-mexanizmlar, asbob-uskunalar hamda boshqa mehnat qurilmalari)dan foydalanish jarayonini samarali va oqilona tashkil etishdir».

Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etishdan maqsad korxona uchun ajratilgan moddiy, mehnat va moliyaviy imkoniyatlardan mumkin qadar yaxshiroq foydalanish, reja topshiriqlarini eng yaxshi ko'rsatkichlar bilan boshqarishdir.

Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etish ilm-fan sifatida tushunilganda uning vazifasi ijtimoiy korxonalarda ishlab chiqarishda va uning tarmoqlarida jamiyatning iqtisodiy qonunlarini qo'llash yo'llarini hamda shu qonunlarga asoslangan holda davlatning xo'jalik siyosatini hayotga tadbiq etish usullarini o'rganishdan iborat.

Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etish korxonalarda ishlab chiqarishning eng ma'qul usullarini, zarur asbob-uskunalarini tanlash, turli korxonalarda ishlab chiqarish sohalarining mutanosib va uzluksiz ishlashni ta'minlash, korxonalarda ishlab chiqarish grafigining buzilishiga yo'l qo'ymaslik,

korxona va tsexlarda korxonalarda ishlab chiqarish estetikasi, sanitariyasi, mehnat muhobosqichsi va texnika xavfsizligi talablariga mos keladigan sharoitlarni yaratish, demakdir.

Korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etish va uni yuksak darajaga ko'tarishda rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Rejalashtirish tufayli korxonalarda ishlab chiqarish jarayoni boshqariladi va tartibga solib turiladi.

Respublikamizda sanoat korxonalarda ishlab chiqarishini har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularni ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, sifatli mahsulot korxonalarda ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishini ta'minlash lozim.

Respublika Prezidentining bir qator farmonlarida, turli yig'inlardagi ma'ruzalarida, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etishni yaxshilashga, u yerda faoliyat ko'rsatayotgan rahbarlarning malakasi va bilimlarini oshirishga qaratilgan tadbirlar mukammal ko'rsatilgan.

1.2. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni va ishlab chiqarish bo'g'inlarini boshqarish

Korxona tarakkiyotning hamma bosqichlarida iqtisodiyotning asosiy va birlamchi bo'g'ini hisoblanadi. Albatta konkret korxonani boshqarish fanlarining tuzilmasi, uni boshqarish shakli va uslublari uning masshtabi va ixtisosligiga bog'liq bo'ladi. Umumiy qilib aytganda iqtisodiyotimizda mavjud bo'lgan turli mulk shakllariga asoslangan korxonalar bir-birovi bilan o'xshashlik va farqlari mavjud. O'xshashligi shundaki har qanday korxona mahsulot, tovar, xizmatlar ishlab chiqaradi, ma'lum faoliyatni amalga oshiradi. Aynan ana shunda uning bosh maqsadi va vazifasi o'z ifodasini topadi. SHuning uchun ham ularni shakl va turlaridan qat'iy nazar, korxonalarni boshqarish asosida texnologik jarayonlarni boshqarish yotadi.

Umumiy o'xshashligidan tashqari iqtisodiyotning turli soxalaridagi korxonalarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu birinchi navbatda turli soxadagi korxonalarda ishlab chiqarish va boshqarishni tashkil qilishdagi o'ziga xos sharoitlardir. Masalan, ba'zi korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini uzoq muddatga

cho'zilishi va jarayonlarning murakkabligi, ularni tayyorlash va xizmat qilish operatsiyalarining o'ziga xos xususiyati va xokazolar. Korxonalar o'rtasidagi farq, xuddi shunday ishlab chiqarishni tayyorlash jarayonining bosqichlarida ham o'z ifodasini topadi. Masalan, yangi mahsulotlarni loyihalash va uskunalash, loyihalash bilan bog'liq bo'lgan hisoblarni amalga oshirish, me'yoriy hisoblarni amalga oshirish va xokazolar.

Iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini hisoblangan korxonalar mamlakatimiz va chet el ta'minlovchilar bilan ko'plab aloqalarni amalga oshiradilar. Ushbu aloqalar xom ashyo bilan ta'minlovchilar va iste'molchilar bilan amalga oshiriladi. Ana shu o'zaro aloqalarni saklab turish va muvofiklashtirish korxona boshqaruvining eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Biron-bir mahsulotni ishlab chiqarish uchun korxonalar ishlab chiqarishning turli omillaridan foydalanadi. Bularga ishchi kuchi, jixozlar, xom ashyo, materiallar, axborot, pul mablag'lari kiradi. SHunga karab korxonani boshqarish bir necha yo'nalishlarga bo'linadi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Kadarlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, ularni madaniy-texnik darajasini oshirish, (personalni) kadrlarni boshqarish;
2. Korxonalarni ishlab chiqarish faoliyatini texnik-iqtisodiy rejalashtirish;
3. Ishlab chiqarishni operativ boshqarish;
4. Korxonani texnik rivojlanishiini va ishlab chiqarishni texnik tayyorgarligi;
5. Mahsulotlar sifatini nazorat qilish;
6. Mehnatni tashkil qilish va ish haqi;
7. Ishlab chiqarishni moddiy-texnik ta'minoti;
8. Tayyor mahsulotni sotishni tashkil qilish;
9. Moliya faoliyatini amalga oshirish;
10. Ishlab chiqarishga texnik va tashkiliy-xo'jalik xizmatini tashkil qilish.

Yuqorida ko'rsatilgan yo'nalishlarning yig'indisini chet mamlakatlar amaliyotida korxona menejmenti deb ataladi. Administratorlar, korxona faoliyatining boshqaruvchilarini menejerlar deyish qabul qilingan. Ushbu atama hozirgi paytda

bizning Respublikamizda chop qilingan iqtisodiy adabiyotlarda va amaliyotda keng ko'lamda ishlatilmoqda.

Hozirgi sharoitda Respublikamizda bir qator korxonalarni boshqarish tuzilmasining turlari mavjud. Korxona, kompaniya, kontsernlar odatda boshliq yoki prezident tomonidan boshqariladi. Kompaniya va kontsernlarni prezidenti strategik rahbarlikni amalga oshiradi. Operativ boshqarish ijrochi direktorlar tomonidan olib boriladi. Direktor ko'p holatlarda korxona faoliyatining alohida yo'nalishlari bo'yicha o'zining muovinlariga ega. Masalan, texnika va texnologiya, ishlab chiqarish, fan, iqtisod, moliya va xokazolar bo'yicha.

Korxonalarni boshqarish apparatiga turlicha xizmatga oid bo'limlar mavjud bo'ladi. Ularni amaliyotda ma'muriy-boshqarish xodimlari deb ataladi. Odatda korxona bo'limlarini boshqarish ishlab chiqarish (korxonani boshqaradigan) va funktsional qismlarga (moliya, ta'minot, sotish, kadrlar, texnologiya, ish yuritish, tashki iqtisodiy aloqalarni boshqarish) bo'linadi. Hammasini umulashtirib rahbarlar, mutaxassislar va texnik ijrochilar deb atasak ham bo'ladi.

Korxona tuzilmasida bo'linma, tsex, bo'lim, laboratoriyalar va boshqa bo'limlarni ko'rsatish mumkin. Hammasida o'zining boshqarish organlari mavjud.

Korxonani boshqarish asosida chiziqli va funktsional tamoyillar yotadi. SHuni qayd qilish joizki, har qanday ishlab chiqarishni boshqarish tizimida chiziqli tamoyil yotadi. Tizimning ichida bo'g'in va pog'onalarni bir-biridan farq qilish lozim. Bo'g'in bu alohida funktsiyalarni bajaruvchi mustakil bo'linmadir. Boshqarish bo'g'ini tushunchasiga shuningdek, bir necha tashkiliy tuzilmalarni faoliyatini rahbarligini amalga oshiruvchi rahbarlarni ko'rsatish mumkin. Bularga bosh muxandis, bosh texnolog, smena boshliglari va xokazolar kiradi.

Boshqarish pagonasi bu bo'g'inlarning yig'indisi hisoblanadi. U boshqarish ierarxiyasini belgilaydi (quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo'ysinishi). Boshqarish tizimidagi chiziqli bo'limlar buyrug'ini bajarish unga bo'ysinadigan hamma bo'limlar uchun shart hisoblanadi. CHiziqli boshqarish berilgan farmoyish va vazifalarni bajarilishida anglashmovchilik kelib chiqishiga imkon bermaydi. CHunki ushbu vazifalar bir rahbar tomonidan beriladi.

SHu bilan rahbarlik birligi ta'minlanadi, rahbarlarning o'zlariga berkitilgan bo'limlar uchun ma'suliyati oshadi.

CHiziqli boshqarish korxonaning tashkiliy tuzilmasini barpo qilish asosini tashkil qilib, butun boshqarish mexanizmining samarali harakatini ta'minlaydi. SHuning uchun ham chiziqli boshqarishni ratsional tashkil qilish bir qator talablarga javob berishi lozim. Birinchidan, bo'ysinadigan pagonalarning soni kancha kam bo'lsa, uni boshqarish shuncha oson bo'ladi. Iloji boricha kam odamlar boshqarish jarayoniga aralashadi. Bu esa boshqarish ob'ektini holatini barqarorligini ta'minlash imkoniyatini tug'diradi. Ikkinchidan, chizig'li boshqarishni samarali harakat qilishi sharoitlaridan biri buyruklarni pastki bo'g'ing'larga uni bevosita rahbari tomonidan berilishi hisoblanadi. Masalan, zavod direktori tsex boshligi xabarisiz, ya'ni bevosita tsex ustasiga buyruk berilishi noto'g'ri hisoblanadi. Amaliyotda agar bunday holatlar uchrab kolsa, demak chiziqli boshqarish tamoyili buzilgan hisoblanadi. Uchinchidan, chiziqli boshqarish tizimi rahbarlar va bo'ysinadigan shaxslarning ratsional nisbatini hisobga olgan holda tuzilishi lozim. Rahbar va boshliqlar sonining ko'pligi, odatda mas'uliyatsizlikni kelitrib chiqaradi va boshqarish operativligini susaytiradi.

Korxonani boshqarish tizimining barpo qilishda muxim ahamiyatga ega bo'lgan ikkinchi tamoyil bu funktsional tamoyildir. Bu tamoyil chiziqli boshqarish tizimidagi rahbarlar o'rtasidagi mehnat taqsimotidan kelib chiqadi. Buning ma'nosi shundan iboratki chiziqli boshqarish tizimining har bir bo'g'ini ma'lum funktsiyani, yoki uning bir qismini bajaradi. Funktsional boshqarishning zaruriyati ishlab chiqarish tizimining murakkabligi va bu jarayonning xilma-xilligidan kelib chiqadi. Ushbu xususiyatlar ma'lum darajada turli soxalar bo'yicha mahsus bilimga ega bo'lishni talab qiladi. SHuning uchun ham korxonani boshqarish va bu jarayon bilan bog'liq bo'lgan masalalarni xal qilish uchun ko'p mehnat va ko'pchilik odamlarning vaqti kerak bo'ladi.

Funktsional boshqarish bu alohida funktsiyalar bo'yicha boshqarishni amalga oshirishdir. Har bir funktsional bo'linmaning o'zining rahbari bo'ladi. Ular ham yakkaboshchilik tamoyili asosida harakat qiladi. Funktsional bo'g'ing'larning hamma

rahbarlari korxonani chiziqli boshqarish tizimi tarkibiga kiradi. Bu asosda chiziqli va funktsional boshqarishning birligi ta'minlanadi.

Funktsional boshqarish quyi pog'onadagi bo'limlar faoliyatini rahbarligini ta'minlab, bir funktsiya doirasidagi masalalarni xal qiladi. Ya'ni, uni boshqarish doirasi va yechadigan masalalari chegaralangan bo'ladi. Funktsional bo'linmaning rahbarlari pastki bo'g'inlarga ma'muriy farmoyishlar berish huquqiga ega emaslar. SHuni qayd qilish joizki, ushbu sertarmoq va murakkab boshqarish nisbatan katta korxonalar uchun xosdir. Uncha katta bo'lmagan korxonalarda bu hol ancha oddiy kechadi.

1.3. Ishlab chiqarishning klaster usuli innovatsion iqtisodiyotning asosiy yo'nalishi sifatida

O'zbekistonda qulay investitsiyaviy muhit yaratilib, chet ellik sarmoyadorlar huquqlarining qonuniy kafolati mustahkamlangani, ularga qo'shimcha imtiyozlar berilayotgani ishbilarmon doiralar faoliyatini rag'batlantiruvchi omil bo'lmoqda.

Keyingi yillarda olib borilayotgan ana shunday oqilona islohotlar samarasi o'laroq, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ta'minlanayaptiki, bu o'z navbatida, xorijlik investorlarning qiziqishini yanada kuchaytirmoqda. Natijada dunyoga mashhur ko'plab yirik kompaniyalarning investiyaviy faoliyati kengayib, iqtisodiyotning turli sohalarida samarali ish olib borayotir.

Yaqinda Prezident SHavkat Mirziyoyevning joylarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, keng ko'lamli bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, yirik loyihalar bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida respublika aholisi bilan uchrashuvlar o'tkazib bormoqda. Bu esa, odamlarning ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamlamoqda, ularning ezgu sa'y-harakatlariga shijoat – bag'ishlamoqda.

O'zbekistonning barcha hududlarida bir qator istiqbolli loyihalar ro'yobga chiqarilmoqda. Ular 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga binoan ishlab chiqilib, hayotga izchil tatbiq etilayotgani bilan ahamiyatlidir. Strategiyada,

jumladan, tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish vazifalari belgilab berilgan.

Ma'lumki, Keyingi yillarda mamlakatimizda xalqaro amaliyotda sinalgan va iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi bozor munosabatlarini va tajribalarini hatyotga tatbiq etishga katta e'tibor qaratilmoqda. SHulardan biri klasterlar bo'lib, hozirda iqtisodiyotimizning to'qimachilik va yengil sanoat sohasida ushbu tuzilma faoliyatini yo'lga qo'yishga kirishilmoqda.

Ko'pgina manbalarda rivojlangan davlatlarning tajribalari barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda, investitsion faollikni oshirishda, raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishda xalqaro logistik markazlari, erkin iqtisodiy zonalar kabi klasterlarning o'рни va ahamiyati juda yuqori ekanligi ko'rsatilgan. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va boshqarishda klasterlardan foydalanish bo'yicha ma'lum tajriba to'plangan.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning tahlillarida "klaster" tushunchasiga bir qator ta'riflar berilgan.

Klaster – bitta sohaga birlashgan va bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan korxonalar guruhi.

Klaster – bitta geografik hududda joylashgan va bitta tarmoqni tashkil qiladigan firmalar guruhi.

Klaster – maxsus sohalar bo'yicha bitta geografik hududda faoliyat yuritayotgan, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan va bir-birini to'ldiruvchi kompaniyalar, institutlar guruhi.

Klaster – gorizontal va vertikal ravishda funktsional bog'liq bo'lgan firmalar guruhi.

Klaster – jamoaviy, xususiy va yarim jamoaviy ko'rinishda bir-biri bilan bog'liq va o'zaro biri-birini to'ldiruvchi firmalar, tadqiqot va rivojlanish institutlari guruhi.

Klaster – tijorat va notijorat tashkilotlari guruhi bo'lib, u guruhda faoliyat yuritayotgan har bir firmaning raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Klaster – hududiy kontsentratsiyalashuvga asoslangan va texnologik zanjirga bog'langan tovar va xom ashyo yetkazib beruvchilar, asosiy ishlab chiqaruvchilarni birlashtirgan industrilashgan majmua.

Umumiy olganda klasterlashtirish bu bitta geografik hududda kontsentratsiyalashgan va ma'lum bir aniq vazifani yechishga qaratilgan firmalar guruhi bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy aloqadagi, jamoviy raqobatlashuvni mustahkamlash maqsadida ishchi kuchlarini o'zaro birlashtiruvchi jarayondir.

Hududni rivojlantirish uchun klasterli tuzilmalarni shakllantirish qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish, mahalliy byudjet daromadlarini oshirish, vakolatlarni taqsimlash, tadbirkorlik tuzilmalari bilan o'zaro ta'sirlashish, axborot ayirboshlashni jadallashtirish va yangiliklarni targ'ib etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining innovatsion faolligini hamda hududlar innovatsion jozibadorligini yuksaltirish, hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish kabi yangi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Tadbirkorlik tuzilmalari uchun klasterlar yirik investitsiya loyihalarida ishtirok etish, qo'shimcha daromad olish, yangi bozorlarga chiqish, innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha xarajatlarni qisqartirish, innovatsion faoliyatni infratuzilmaviy ta'minlash, xodimlar malakasini oshirish, kichik korxonalarni innovatsion faoliyatga jalb etish va pirovardida raqobatbardoshlikni ko'tarish omili hisoblanadi. Bunda har bir klaster ishtirokchisi bo'lgan korxona o'z maqsadini ko'zlagan holda nafaqat o'z xo'jalik faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini oshiradi, balki tadbirkorlik infratuzilmasini shakllantirishga ko'maklashgani holda, hududda faoliyat yuritayotgan turli xildagi boshqa korxonalarining iqtisodiy o'sishiga yordam beradi.

Xorijiy va mahaliy ekspertlarning ta'kidlashicha, hududiy klasterda ishtirok etish fan va ta'lim muassasalari uchun ham jozibador bo'lishi mumkin, chunki bu ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyalashtirish hajmini ko'paytirish, sifatini yaxshilash, ilmiy tadqiqot ishlarining texnik ta'minoti darajasini yuksaltirish,

investitsiyaviy tashqi loyihalarda ishtirok etish, ilmiy-pedagog kadrlar malakasini oshirishning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

Xorijlik ekspert Maykl Porter o'z tadqiqotlaridan kelib chiqib qayd etishicha, klaster strategiyasining ustuvorligi korxona (firma)lar uchun ta'minotchilarga, malakaviy xodimlarga, axborotlarga, xizmat va ta'lim markazlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishlari sababli mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi misli ko'rilmagan imkoniyatlar bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, klaster tizimida ta'lim va ilmiy-tadqiqot markazlari yangi ilmiy-uslubiy ishlanmalarni yaratish, ularni qisqa muddatda sinovdan o'tkazish, ishlab chiqarish va ilmiy izlanishlardagi xodimlar hamda mutaxassislar mehnatlarini ko'proq rag'batlantirish, yangi tovarlarni ixtiro qilish uchun sharoit paydo bo'ladi. Klasterlashtirishga korxonalar innovatsion faoliyatini tezlashtirish asosida raqobatbardoshlikni oshiruvchi, raqobatning kuchli ta'siriga qarshi turish jarayonidagi talablarga to'la javob beruvchi tuzilma sifatida baho beriladi.

Tahlilchilarning yana bir fikriga ko'ra, yuqori raqobatlashuv ko'rsatkichlariga ega bo'lgan kompaniya o'z yutug'i orqali atrofdagi iqtisodiy sub'ektlarga, ya'ni iste'molchilar, xom ashyo yetkazib beruvchilar va raqobatchilarga ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Atrofdagilarning kuchayishi esa kompaniyaning raqobatbardoshlikni yanada ko'tarishiga olib keladi. Ayni shunday sharoit klasterlar rivojlangan hududda yaqqol namoyon bo'ladi.

Prezident SHavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, yaratiladigan klaster innovatsiyaga ko'maklashuvchi muhim vosita bo'lib, O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish hamda zamonaviy korxonalarning ko'payishiga mustahkam zamin yaratadi. Pirovardida qo'shimcha qiymatga esa sanoat mahsulotlari tayyorlash hajmi ortib, eksport salmog'i ko'payadi, shuningdek, ishlab chiqarish va savdo munosabatlari takomillashuvi hisobiga katta iqtisodiy samara keltiradi.

Tadbirda «O'zpaxtasanoateksport» xolding kompaniyasi O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga ko'ra paxtachilik sohasini rivojlantirishi bo'yicha

o'z oldiga yangi vazifa va marralarni belgilab olgani ta'kidlandi. Harakatlar strategiyasining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida paxtachilik sohasini rivojlantirish kontseptsiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda soha korxonalarini modernizatsiya qilish, mahsulotlarni mahalliyashtirish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish bo'yicha bajariladigan ishlar va aniq vazifalar belgilab olingan.

Xolding kompaniya an'anaviy sotuv bozorlarida o'zbek paxtasining mavqeini mustahkamlash maqsadida Xalqaro paxta uyushmasi, Bremen paxta birjasi va boshqa qator yirik paxta assotsiatsiyasi va birjalariga a'zo bo'lgan. Pokiston, Indoneziya, Vetnam kabi yangi bozorlarni o'zlashtirdi. Ko'rilgan tizimli sa'y-harakatlar samarasida 2016 yilgi mavsumda "oliy" va "yaxshi" sinflaridagi tolaning umumiy paxta hosilidagi ulushi 92 foizni tashkil etdi.

Paxta tolasini tasniflashning milliy tizimi takomillashtirilib, yangi sifat o'lchovlari – paxta tolasining past navlari uchun sinflar joriy etilib, paxta tolasini bo'yicha yangi standart qabul qilindi.

Jahon paxta bozorida o'zbek paxta tolasining raqobatbardoshligi va xaridorgirligini yanada oshirish maqsadida Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan hamkorlikda Farg'ona va Jizzax viloyatlarida «VS1» (Paxtani yaxshilash tashabbusi) printsiplariga asoslangan holda paxtachilikni barqaror rivojlantirish standartini joriy etish loyihasini amalga oshirish borasida muzokaralar olib borilmoqda. Respublikada keng turdagi sifatli to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari (keyingi o'rinlarda to'qimachilik mahsuloti deb yuritiladi) ishlab chiqarilishini tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliyashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'tgan davr mobaynida to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish uchun zarur huquqiy baza va qulay sharoitlar shakllantirildi.

SHu bilan birga, o'tkazilgan o'rganishlarda mamlakat to'qimachilik sanoatining izchil rivojlanishiga to'siq bo'layotgan qator tizimli muammolar aniqlandi, xususan:

- birinchidan, tarmoqning yetarli salohiyatiga qaramasdan, yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotni ishlab chiqarishda uyg'unlashgan texnologik zanjirning mavjud emasligi sababli 2017 yilning birinchi yarim yilligida ishlab chiqarilayotgan to'qimachilik mahsulotlarining respublika yalpi ichki mahsulotidagi ulushi atigi 4,6 foizni tashkil etdi;

- ikkinchidan, to'qimachilik sanoatining boshqaruv tizimi tarmoqning zamonaviy rivojlanish tendentsiyalariga javob bermaydi, bu esa hal etilmagan muammolarning to'planib qolishiga olib kelmoqda hamda uning jadal modernizatsiya qilinishiga to'sqinlik qilmoqda;

- uchinchidan, milliy standartlar va to'qimachilik mahsulotlarining sinovlari bo'yicha laboratoriyalarning xalqaro standartlar va talablar bilan uyg'unlashtirish ishlarining qoniqarsizligi, shuningdek, sifat menejmenti zamonaviy tizimlarini joriy etishning past darajada ekanligi mahalliy mahsulotlarni yirik xorijiy savdo bozorlariga chiqarishga, eksport salohiyatini yuksaltirishga hamda mahsulotlar sifati va xavfsizligiga bo'lgan ishonchni oshirishga to'siq bo'lmoqda;

- to'rtinchidan, tarmoqqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish darajasi mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish va to'qimachilik sanoati rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini belgilash uchun shart-sharoit yaratmayapti;

- beshinchidan, xom ashyo va ishlab chiqarish resurslarining nooqilona taqsimlanishi, logistika va muhandislik infratuzilmasini tashkil etishdagi kamchiliklar ishlab chiqarish quvvatlari ancha qismining to'xtab qolishiga, iqtisodiy yo'qotishlarga va oqibatda mahsulotlar tannarxining oshishiga, shuningdek, ishlab chiqarish rentabelligining pasayishiga olib kelmoqda;

- oltinchidan, to'qimachilik yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilishning barqaror ustunlik qilishi, yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va jahon bozorlarida munosib raqobatlashishga qodir bo'lgan milliy brendlarni shakllantirishning yetarli darajada emasligi to'qimachilik sanoati korxonalari daromadlarini oshirish imkonini bermayapti;

- ettinchidan, kadrlar tayyorlash tizimi to'qimachilik sanoatining real ehtiyojlariga javob bermaydi, tarmoqni rivojlantirishning dolzarb masalalari bo'yicha o'qitishning innovatsion yo'nalishlarini joriy etish va ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish yuzasidan xalqaro hamkorlik yo'lga qo'yilmagan.

Klaster strategiyasini amalda qo'llash asosida milliy va mintaqaviy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish g'oyasi yotadi (M.Porter va M.Enrayt) va uning quyidagi ustuvor jihatlari borligini ochib beradi:

- korxona (firma)lar uchun ta'minotchilarga, malakaviy xodimlarga, axborotlarga, xizmat va ta'lim markazlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishlari sababli mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkoniyatlar yaratiladi. Klasterlashgan mintaqalar korxonalarida mehnat unumdorligi 1,5 barobargacha, ish haqi esa 30 foizgacha ko'pligi o'z tasdig'ini topgan;
- ta'lim va ilmiy-tadqiqot markazlari yangi ilmiy-uslubiy ishlanmalarni yaratishi, ularni qisqa muddatda sinovdan o'tkazishi, ishlab chiqarishga joriy etishi uchun shart-sharoitlar mavjud bo'ladi;

- ishlab chiqarish ilmiy izlanishlardagi xodimlar va mutaxassislar mehnatlarini ko'proq rag'batlantirishga va yangi tovarlarni yaratishga imtiyozli sharoitlar bo'ladi.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan SHanxay Hamkorlik Tashkiloti Sammitidagi nutqida ilgari surilgan tashabbuslardan biri agrosanoat klasterlarni rivojlantirish g'oyasi bo'ldi. Bu innovatsion g'oya tezda dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan tan olindi.

Mamlakatimiz Prezidenti SHavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, Vatanimizni dunyoning ilg'or davlatlari qatoridan joy olishining yo'li – bu agrar sohada, ilm-fanda, ta'lim tizimida va boshqa sohalarda klaster tizimlarining joriy etilishi hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari olimlar bilan uchrashuvlarida ta'kidlaganidek, barcha sohalarda klaster tizimini yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Darhaqiqat, yengil sanoat, neft, gaz, ximiya, biotexnologiya, farmatsiya, informatika, avtoqurilish, transport-logistika, rekreatsion-turistik, oziq-ovqat, ta'lim, baliqchilik,

parrandachilik, asalarichilik, ipakchilik va boshqa sohalarda klaster tizimlarini yaratish ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni moliyalashtirish hajmini ko'paytiradi, sifatini yaxshilaydi, ilmiy tadqiqot ishlarining texnik ta'minoti darajasini yuksaltiradi, investitsiyaviy tashqi loyihalarda ishtirok etish, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Bundan tashqari, klaster tizimida ta'lim ishlanmalari yaratish, ularni qisqa muddatda sinovdan o'tkazish, ishlab chiqarish va ilmiy izlanishlardagi xodimlar hamda mutaxassislar mehnatlarini ko'proq rag'batlantirish, yangi tovarlarni O'zbekiston brendi bilan ixtiro qilish uchun keng imkoniyatlar va sharoit paydo bo'ladi.

Ta'lim tizimida ham klaster mavjud. Bu esa shaxsni kamol topishi va yetuk kadr bo'lishiga qaratilgan bo'lib, uning bog'liqligi – bog'cha, maktab, litsey, kolledj, oliy o'quv yurti, doktorantura, malaka oshirish kabi jarayonlarni qamrab oluvchi butun umr davomidagi ta'lim zanjirini bir-biriga bog'langanidir.

Xaqiqatdan ham Kadrlar tayyorlash milliy dasturida bu zanjir o'zini namoyon etadi. Lekin mustaqillik davrlarning boshlari, o'tish davrlari va undan keyingi davrlarda respublikamizda iqtisodiy, ta'lim sohalarida juda murakkab jarayonlar bosib o'tildi. Bular bir qaraganda stabil holatda ketgandek ko'rinsada, hozirga kelib ishlab chiqarishda mahalliy texnika va texnologiyalar zamon talablaridan ortda ekanligi, kasb-hunar kollejlari hamda OTMlarning bitiruvchilarini bilim va ko'nikma darajalari zamon talablaridan pastda ekanligi yaqqol sezilib qoldi. Demak, bu yerda ta'lim zanjiri ketma-ketligida uzilish bo'lmasa xam, zanjirning alohidagi bo'g'inlari ichida katta uzilishlar ro'y bergan. Bular ta'lim oluvchiga nisbatan talabning susayganligi, ta'lim oluvchining oliy ma'lumotga extiyoj sezmagani, raqobat zaruriyati bo'lmagani, sifatli ta'lim shaklini buzilishi (o'qituvchilar qo'nimsizligi), o'quv yurtlarining moddiy – texnika bazasini yetishmovchiligi va boshqalar bo'ldi.

SHuning uchun ham yurtboshimiz hozirgi kunda milliy iqtisodiyotimizni "Klaster usuli"da rivojlantirish bo'yicha qo'ygan maqsad va rejasiga asoslangan holda, huddi shu usul bilan OTM va boshqa o'quv yurtlarida "Raqobatbardosh kadr tayyorlash klasteri" tashkil etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

1.4. Ishlab chiqarishni tashkil qilish va korxonani boshqarishda rahbarning tutgan o'рни

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlanishi va takomillashuvining xal qiluvchi sharoitlaridan biri boshqarish kadrlari bilan olib borilayotgan ishlarni doimi suratda yaxshilashdan iborat. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, bozor munosabatlarining imkoniyatlari va ustunligidan samarali foydalanish aynan boshqarish kadrlarining va birinchi navbatda rahbarlarning aqli, ish bilarmonligi, yangi sharoitda boshqarish maqsadlari, tamoyillari va uslublarini kay darajada qo'llay bilish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

O'z vaqtida menejment nazariyasi klassiklari har qanday davlatni rivojlanishi uchun uchta asosiy omil amal qilishiini alohida ta'kidlab o'tgan edilar. Bularga insonlar, moliya siyosati, texnika va texnologiya kiradi. Burinchi o'ringa insonlarning qo'yilishi bejiz emas. Yapon, Amerika va Yevropadagi ko'zga ko'ringan menejerlarning biznes soxasida erishgan yutuqlarini ana shu omillarga tayanib ish ko'rganlari bilan boglash mumkin.

Hozirgi sharoitda korxona rahbarlari rolining oshib borishi bir qator omillar bilan belgilanadi. Bularga korxonalaridagi sifatli o'zgarishlar, ishlab chiqarish hajmining oshishi, ishlab chiqarish jarayonlarining murakkablashishi, davrga xos bo'lgan yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishchi-xodimlar mafkurasining o'zgarishi, boshqarishni shakl va uslublarining o'zgarishi, hamma soxada demoqratlashtirishni amalga oshirilishi, davrning talabi bilan rahbarlarning alohida o'rin egallashi va xokazolarni ko'rsatish mumkin.

Hozirgi sharoitda rahbarlar rolining oshib borishi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

* turli mulk shakllarining vujudga kelishi (davlat, xususiy, aktsioner jamiyatlar, maxalla va xokazolar);

- * xo'jalik yuritishning yangi shakllarini vujudga kelishi (aktsioner jamiyatlar, kontsern, korporatsiya, konsortsiyum, qo'shma korxonalar, xususiy korxonalar va xokazo);
- * iqtisodiyotimiz hajmining o'sishi, iqtisoddagi sifatli o'sishlar, fan-texnika yutuqlarini amaliyotda qo'llash boshqarish qarorlari variantlarini ko'paytiradi, ularni tanlash mummolarini murakkablashtiradi;
- * xo'jalik yurtishni noiqtisodiy yo'nalishlari rolining oshib borishi (sotsial me'yorlar, iste'mol mezonlari, atrofdagi muxit muammolari va xokazo) boshqarish kadrlari va birinchi navbatda rahbarlarning mas'uliyatini oshiradi;
- * bilim hajmining oshishi va ularni tuzilishining o'zgarishi, yangi fan soxalarining paydo bo'lishi faoliyat yo'nalishlarini tanlash imkoniyatini kuchaytiradi va rahbarlarni boshqarishga ta'sir qilish zaruriyatini kengaytiradi;
- * bozor sharoitida boshqarish tizimining o'zidagi o'zgarishlar, hamma soxalarda demoqratik tamoyillarning kirib kelishi;
- * qonun ustivorligini ta'minlash boshqarish qarorlarini qabul qilishda sub'ekt omilning rolini oshiradi;
- * bozor mexanizmlarining ta'siri ostida bir qator yangi istikbolli qarorlar xissasi oshadi, doimiy ravishda yangi muammolar paydo bo'ladi. Bularni o'z vaqtida aniqlab xal qilish, birinchi navbatda, rahbarlardan maxorat, ziyraklik va bilimdonlik talab qiladi.

Hozirgi zamonda ko'pchilik qarorlarning asosiy xususiyati shunday iboratki, ular o'zlariga iqtisodiy, sotsial, tashkiliy va boshqa yo'nalishlar nuqtai nazaridan yondoshishni talab qiladi. Aynan rahbar o'zining boshqarish tizimida tutgan o'rniga karab yuqoridagi yondoshishni amaliyotga tadbqiq kila olish mumkin. Bundan tashqari rahbarlar rolining oshib borishi axborotlarni ishlash jarayonini avtomatlashtirish, keng miqyossda kompyuter texnikasidan foydalanish bilan ham belgilanadi. Yuqoridagi texnikadan keng ko'lamda foydalanish boshqarish xodimlarini hammaga ma'lum bo'lgan, noijodiy vazifalardan ozod qilib, asosiy diqqat e'tiborni eng muxim masalalarga karatishni talab qiladi. SHunday qilib,

iqtisodiyot murakkablashib borgan sari rahbarlarning ham vazifalari murakkablashib boraveradi.

Rahbar sotsial, professional va shaxs nuqtai nazardan olib tekshirilishi lozim. SHuni aytish joizki har qanday xo'jalik rahbari eng oldin bozor iqtisodiyoti sharoitida turli mulk shakllariga asoslangan mavjud iqtisodiy munosabatlarini ustunligini amalga oshirish yo'llarini o'ylab topishi kerak. Bu bilan u yuqori darajadagi ma'sul sotsial-iqtisodiy vazifani bajargan bo'ladi. Ushbu vazifani bajarish uchun unda hamma imkoniyatlar mavjud. Eng asosiysi unga kerak bo'lgan va huquqiy hujjatlar bilan mustaxkamlangan vakolat berilgan. Avvalo bizni Respublikamizda bajarilgan vazifalarning sifati va samaradorligi so'z bilan emas uni ishi bilan baholanashi yaxshi yo'lga ko'yilgan. Ushbu baho har bir faoliyatning iqtisodiy va sotsial natijalari bilan belgilanishi lozim.

Xo'jalik rahbari o'zining eng asosiy sotsial-iqtisodiy vazifasini muvaffaqiyatli bajarishi uchun yuqori darajadagi professional va uni amaliyotga joriy qila olishi lozim va birinchi navbatda mehnat jamoasini tashabbusini davlat tomonidan belgilangan maqsadga erishish jarayoniga jalb qila bilishi kerak.

Va nixoyat shuni qayd qilish joizki, xo'jalik rahbari birinchi navbatda insondir. SHuning uchun ham inson uchun xos bo'lgan hamma xususiyatlar rahbarga ham xosdir. U kuchli va kuchsiz bo'lishi mumkin. Yashash uchun sharoit yaratish afzalroq ekanligini tushinadi. Ko'pchilik rahbarlar ishdagi muvaffaqiyat uy-ro'zg'orini tinch ekanligiga bog'liq ekanligini ham yaxshi xis qiladi. Dam olishning, mashg'ulotlarni o'zgartirib turishning bahosini yaxshi biladilar. Lekin o'zining shaxsiy extiyojlarini kondirish uchun yaxshi moddiy imkoniyatlarga ega bo'lgan rahbarlar vaqt tansiqqligiga duch keladilar. Natijada o'zlarining yaxshi tilaklarini hayotda tadbiq qilomasdan qoladilar. Bularning hammasi oqibatda ularning sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bu holdan serg'ayratli, tashabbuskor rahbarlarga ko'proq ziyon yetadi. SHuning uchun ham rahbarlarni sotsial, professional va shaxs tomonlarning birligi nuqtai nazaridan olib qaramaslik qarama-qarshi holatga olib kelishi mumkin. Bunday qarama-qarshilikni bartaraf qilish

faqatgina jamiyat va rahbarlarni o'zlarining umumiy tirishqoqligi orqali amalga oshadi.

Boshqarish tizimida rahbarlarning alohida roli ularda doimo o'z ustida ishlash, bilimlarni takomillashtirib borish, alohida bilim soxalarini o'rganishni talab qiladi. Chunki yuqoridagi ishlarni amalga oshirmasdan turib rahbar o'ziga berkitilgan vazifani samarali xal qilishi juda qiyin bo'ladi. Xech kimga bir umr rahbar bo'lish huquqi berilmagan. Faqat halol mehnat, faoliyatida tashabbus, yaxshi xo'jalik natijalari bilan rahbar o'zining rahbar degan nomini oqlay oladi.

Hozirgi sharoitda rahbarlarning rolini aniqlash ularni boshqarish tizimida tutgan o'rnini belgilash imkoniyatini yaratadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi zamonaviy korxona rahbari a) peshqadam, b) boshqaruvchi, v) diplomat, g) tarbiyachi, d) innovator, ye) insoniy mavjudot tarikasida namoyon bo'ladi. Bularning har birini amaliyotda sinab ko'rish rahbardan juda ko'p sifat va fazilatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Bu borada mehnatni ilmiy tashkil qilish nazariyasining asoschisi F.Teylor menejerda quyidagi sifatlarni ajratib ko'rsatadi: akl, ma'lumot, texnik bilimlar, odoblilik, g'ayratlilik, qat'iyatlilik, rostgo'ylik, muloxazalik. Menejmentning yana bir klassiki A.Fayol esa, menejer oldindan ko'rabilishi va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi, o'z sog'ligi bilan ajralib turishi, rivojlangan aqlu zakovat soxibi bo'lishi, yuksak madaniy va axloqiy darajaga ega bo'lishi kerak deb ta'kidlagan edi. Qolaversa, hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlar firma va kompaniyalarda menejer qanaqa sifatlarga ega bo'lishi kerakligi to'g'risida o'zlarining nuqtai nazarlari mavjud.

Menejment masalalariga oid chet el adabiyotlari bilan tanishish shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik AKSH, Yevropa va Osiyo-Tinch okeani regionidagi raqobatga bardosh beradigan firma va kompaniyalar qat'iylik bilan menejerlik san'atini o'rganib, uni amaliyotda ustalik bilan tadbqiq qilish natijasida katta muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar. Bu o'z ifodasini o'z vaqtini boshqarish, xizmatga oid xatlarni tayyorlash, odamlar bilan munosabat qilish, auditoriya oldida so'zga chiqishi, muzokaralar olib borish va xokazolarda topdi.

SHunday qilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida korxona va tashkilotlarni yaxshi, sifatli boshqarish uchun rahbar nimalarga ega bo'lishi kerak?

Tashkilotchilik qobiliyatiga, tadbirkorlikka, boshqarishning pastki darajalarida rahbarlik qilish tajribasiga, ma'lum pedagogik maxoratga aniq va ma'lumotli qilib o'z fikrini yetkazish uchun so'zlashish qobiliyatiga, o'z xatolarini mardlarcha tan olish va tanqidni xurmat qilishga.

Nimalardan xabardor bo'lishi kerak?

1. Iqtisodiyotdan, tashkil qilishdan, boshqarishdan, rejalashtirishdan, moliyadan, hisobdan, texnika va texnologiyadan, pedagogikadan, psixologiyadan, huquqshunoslik va xokazolardan.

2. O'z soxasi bo'yicha oxirgi fan-texnika yutuqlaridan.

3. Boshqarishning ob'ektidan, shu soxa bilan bevosita aloqador xodimlarning ma'lumotidan, jamoadagi munosabatlardan, ulardagi norasmiy peshqadamlarning (liderlarning) ma'lumotidan.

Nimalarni bilish kerak?

Innovatsiyalardan foydalanishni, yangilikni, ilg'or yutuqlarni, aniq, tez ishlashni, shu bilan birga jamoada sokin, ishchanlik vaziyatini ta'minlashni, har bir vaziyatda asosiy muammoni ko'ra bilish va bir yo'la bir necha ishga yopishmaslikni, vaziyatni to'g'ri baholash va optimal qarorlar qabul qilishni, yuqori mehnat intizomini ta'minlashni.

II bob. «O'zbekneftegaz» DXK SP-1 korxonasining tashkiliy texnik tavsifi va iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili

2.1. «O'zbekneftegaz» DXK SP - 1 korxonasiga tashkiliy – texnik tavsifi va boshqaruv strukturasi tahlili

O'zbekistonning gozal gushalaridan biri bo'lgan Fargona vodiysining sharqida joylashgan va «O'zbekneftegaz» Davlat Xolding kompaniyasiga qarashli SP 1-korxonasi 1982 – yilning 12 martidagi № 177 sonli buyrug'iga asosan, mamlakatimizda va undan tashqarida faoliyat ko'rsatayotgan gazchilar va neftchilarga kapital qurilish va ta'mirlash xizmatlarini ko'rsatish uchun tashkil qilindi. “ korxonaning faoliyatdan maqsadi”:³

- o'z faoliyati natijasidan foyda olish;
- neft va gaz qazib olishni belgilangan sur'atda ko'paytirish maqsadida quduqlarni burg'ulashda yayotgan korxonalarga kapital qurilish va ta'mirlash bo'yicha davlat reja topshiriqlarini bajarish;
- qurilish texnologiyasini yaxshilash, qurilish tezligini va mehnat samaradorligini oshirish hisobiga bajariladigan ishlar unumdorligini ko'tarish;
- bajariladigan ish va xizmatlar yuqori foydaliligiga yetishish bo'yicha qoidalarga rioya qilish;
- qurilish faoliyatida yer osti boyliklarini ehtiyotlash choralariga jiddiy amal qilish;
- sohaviy tarmoqlarni aniq va me'yoriy ishlashni ta'minlash;
- qurilish va ta'mirlash ishlariga tezkor rahbarlik qilish darajasini ko'tarish;
- yuqori tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan reja va topshiriqlarga asoslanib ularni bajarishni ta'minlovchi tezkor reja va jadvallar tuzish, muhokama qilish va tasdiqlash;
- uchastkalar belgilangan yillik, chorak va oylik reja hamda topshiriqlarni yetkazish;

³ «O'zbekneftegaz» DXK 1- korxonasi Ustavi (Yangi tahrirda) -2009 yil

- qurilish – ta'mirlash jarayonida asbob–uskunalardan va mexanizmlardan to'g'ri foydalanish, yangi texnika va mehnatni ilg'or usullarini hamda ixtirolar, yangiliklarni joriy etish, ishlab chiqarish ilg'orlari tajribalarini keng yoyish uchun tadbirlar ko'rish, shu bilan birga ishlab chiqarishda texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilish ishlarini amalga oshirish, ishlab chiqarish rejalarini bajarish maqsadida moddiy texnika ta'minotini tashkillashtirish;
- yuklangan vazifalarni bajarish uchun kerakli shartnomalar tuzish, iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha topshiriqlarni moliyaviy shartnoma va intizomni jiddiy saqlagan holda bajarishni ta'minlash;
- qurilish – ta'mirlash ishlari bo'yicha umumiy faoliyatga oid barcha kerakli asbob–uskunalar, apparatlar va boshqa xizmatlar sifatini oshirish, mehnat unumdorligini va moddiy–texnika ta'minotidan foydalanish samarasini oshirish;
- moddiy–texnikaviy tayanchi rivojlantirish maqsadida mamlakat ichida va tashqarisida ilg'or texnologiya bo'yicha asbob–uskunalar harid qilish;
- belgilangan tartibda xo'jaliklardan va hokimiyatlardan yer maydonlarini foydalanish uchun ijaraga va sotib oladi;
- tabiat muhofazasi tabiiy boyliklardan ustalik bilan foydalanish ekologiya jihatdan toza mahsulotlarni foydalanish va yetkazish, yong'inga qarshi xavfsizlik hamda ishlovchilarni ijtimoiy himoyalash bo'yicha amaldagi qonunchilikka to'la rioya qiladi;
- qonunchilikda man etilmagan barcha turdagi faoliyat bilan buyurtmalar asosida shug'ullanadi;
- faoliyat uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya)lar talab qilingan hollarda mazkur ruxsatnoma olingandan so'ng ishga kirishiladi.

Bu o'tgan davr ichida korxona zamonaviy sanoat korxonalari, madaniy – maishiy ob'ektlar va bejirim qulay turar joylar barpo etishga o'z xissasini qo'shdi.

korxonaning faoliyati, ayniqsa O'zbekistonning mustaqillikka erishganidan keyin jadal rivojlandi. korxona mamlakatimizning iqtisodiy mustaqilligini


mustaxkamlashga, uning salohiyatini va Raqobatbardoshligini oshirish uchun katta xizmat ko'rsatdi.

Jumlada, Markaziy Osiyoda faqat ikkita (bittasi Kozogistonda) hisoblangan Xo'jaobod «Gaz ombori» qurilishida hamda unda mehnat qiluvchi ishchi va xodimlar uchun uy – joylar, ijtimoiy – maishiy ob'ektlarni qurishda muxim rol uynadi. Andijonning darvozasi hisoblangan «Aeroport» binosini qurishda, uni jaxon standartlari talabiga javob beraoladigan inshoatlar qurish va ko'tish zallarini bezashda uzining moxir ustalari bilan qatnashdi. Andijon viloyatining Asaka shaxridagi dunyoga mashxur «GM – O'zbekistan» qo'shma korxonasiga butlovchi qismlarni yetkazib beruvchi «Uz Koram Ko» qo'shma korxonasini qurilishida ham uzining katta xissasini qo'shdi. Xozirgi kunda ham Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan qishloq joylarda axoli uchun qurilayotgan namunaviy turar joylarni qurishda ham faol qatnashmoqda.

«O'zbekneftgaz» DXK SP 1- korxonasining Boshqaruv strukturasi tahlil qilar ekanmiz (2.2.1 – rasm), boshqaruvning tashkiliy strukturasi tushunchasiga qisqacha tar'rif berishni o'rinli deb topdik. Menejmentning asosiy tushunchalaridan biri – boshqaruvning tashkiliy strukturasi bo'lib, menejrlarning ishchilari ular o'rtasida vakolatlarni taqsimlanishi, boshqaruvning maqsadi, funktsiyalari va jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Tashkiliy struktura miqyosida barcha boshqaruv jarayoni harakatlanadi va unda boshqaruvning jami pog'ona, toifa va mutaxassisligidagi menejerlar qatnashadi. Tashkiliy strukturani boshqaruv tizimining qovurg'asiga o'xshatish mumkin. Shu tufayli rahbarlar boshqaruv strukturalarini loyihalashda va tanlashda boshqaruv strukturalari usullari va tamoyillariga alohida e'tibor bilan qarashadi.

Boshqaruvning strukturasi deganda tashkilotning bir butun bo'lib faoliyat olib borishi va rivojlanishni ta'minlaydigan tartibli ravishda barqaror o'zaro bog'liq bo'lgan elementlar tushuniladi.



2.1.2 - rasm. «O'zbekneftegaz» DXK SP-1 korxonasining boshqaruv strukturasi

Quyilgan maqsadga erishish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, boshqaruv faoliyatini taqsimlash va kooperatsiyalash ham boshqaruvning tashkiliy strukturai orqali aniqlanadi. Ushbu pozitsiyadan olg'anda boshqaruv strukturasi uning tarkibidagi boshqaruv organlari va xodimlar o'rtasida ma'suliyat va vakolatlar, tartibli faoliyat olib borish shakllari, funktsional majburiyatlarning optimal shaklda taqsimlanishi tizimi sifatida tushuniladi.

Boshqaruv tizimining tayanch tushunchalari elementlar, aloqa (munosabatlar), pog'ona va vakolatlardir. Boshqaruvning tashkiliy strukturasi element sifatida alohida xodim (rahbarlar, mutaxassislar, xizmatchilar) lar ham yoki bo'lmasa bir qancha xodimlar band bo'lgan biron bir funktsional vazifani bajaruvchi xizmat yoki boshqaruv apparati organlari ham hisoblanishi mumkin. Elementlar yordamida amalga oshiriladi. Gorizontal aloqalar yagona pog'onali hisoblanib, bir-biri bilan muvofiqlashtirish harakteriga ega.

Boshqaruv strukturasi chiziqli va funktsional munosabatlar farqlanadi. Chiziqli munosabatlarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish va axborot almashinuvida chiziqli rahbarlar tashkilot faoliyati yoki o'z bo'linmasi faoliyati uchun to'liq javobgar hisoblanadi. Funktsional munosabatda u yoki bu boshqaruv vazifasi uchun mas'ul bo'ladi. Shu sababli chiziqli personal, shtabli personal va funktsional personal vakolatli degan tushuncha ishlatiladi. Chiziqli rahbar unga topshirilgan tashkilot yoki bo'linmada boshqa a'zolar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan, rivojlanishi barcha sohasiga taalluqli topshiriqlar berish vakolatiga ega. Shtabli personal vakolati rejalashtirish, taklif qilish, maslahatlashtirish, yordamlashishdan iborat bo'lib, korxonaning boshqa a'zolariga bo'yruq berishi mumkin emas. Boshqaruv apparatining biron-bir xodimiga chiziqli rahbar vakolatidagi qaysidir yo'qolish bo'yicha bo'yruq berish va faoliyat olib borish topshirilsa funktsional vakolatli rahbar hisoblanadi.

Boshqaruvning tashkiliy strukturasi element va pog'onalarining ortishi munosabatlarning murakkablashuvi va o'sishiga olib keladi, natijada boshqaruv jarayoni sekinlashadi, zamonaviy sharoitda bu tashkilotda menejment faoliyati sifatining yomonlashishiga olib keladi.

Boshqaruv strukturasiga uning menejment uchun tayanch ahamiyatini aks ettiradigan ko'pgina talablar qo'yiladi. Ular boshqaruvning tashkiliy strukturalarini shakllantirishda e'tiborga olinadi. Ularning asosiylari qo'yidagilar:

1. Boshqaruvning tashkiliy strukturasida avvalambor ishlab chiqarish va uning ehtiyojlariga bo'ysundirilgan bo'lib, tashkilot va korxona maqsad vazifalarini aks ettirishi lozim.

2. Boshqaruv organi va alohida xodimlar o'rtasida ijodiy mehnat va normal yuklamani shuningdek, ixtisoslashuvini ta'minlaydigan optimal mehnat taqsimoti ko'zda tutilishi lozim.

3. Boshqaruv strukturasini shakllantirishda har bir xodim va boshqaruv organining vakolati va mas'uliyati, hamda ular o'rtasidagi gorizontal va vertikal aloqalar bog'lanishni belgilash lozim.

4. Funktsiya va vazifalar ma'suliyat va vakolat o'rtasidagi tenglamani ta'minlash lozim.

5. Boshqaruvning tashkiliy strukturasida boshqaruvning markazlashuvi, ma'suliyat va vakolatning taqsimlanishini, menejer va rahbarlar nazorati ko'lamini va mustaqillik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi tashkilotdagi ijtimoiy-madaniy muhitga to'g'ri kelishi kerak. Bu esa boshqa ijtimoiy-madaniy muhitga to'g'ri kelishi kerak. Bu esa boshqa ijtimoiy-madaniy muhitda muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgan tashkiliy strukturadan ko'r-ko'rona olingan nusxa, muvaffaqiyat garovi emasligini anglatadi.

Boshqaruvning tashkiliy tuzilmasini shakllantirish yoki qayta qurish uchun ushbu tamoyillardan foydalanish davrida tashkiliy strukturaga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisobga olish kerak. Strukturani parametri va konturlarini belgilaydigan asosiy omil – tashkilotning o'zidir. Ma'lumki, korxonalarni bir qancha kriteriyalarga asoslangan holda farqlanadi. Ushbu yondashuvlar tijorat va notijorat, yirik, o'rta va kichik rivojlanishning har xil bosqichida turgan, mehnat taqsimoti va kooperatsiya va avtomatizatsiya ixtisoslashuvining har xil darajasiga ega korxonalarda har xil bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlarimiz ob'ekti bo'lgan «O'zbekneftegaz» DXK SP 1-korxonasining yuqori tashkiloti «O'zbekneftegaz» DXK, undan keyingi bo'g'in bu UPNP va KRS korxonasi hisoblanadi va ularga hisobot beradi. Korxonadagi mavjud Boshqaruv strukturasi funktsional Boshqaruv strukturasi turiga kiradi. Bunda har bir bo'lim asosiy faoliyatni amalga oshiruvchi bulnmalarga ma'lum fuksiyalarni bajarish orqali yordam beradi.

Korxona boshligi korxona faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, uning mablag'lari va mulkidan foydalanish uchun mas'uldir. korxona boshligi korxona nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, bitimlar tuzadi, shtatlarni tasdiqlaydi, jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruklar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi.

Korxona boshligiga bevosita boshliq o'rinbosari va bosh muxandis, bosh hisobchi, reja-iqtisod bo'limi, ta'minot va kadrlar bo'limi, xuquqshunoslar buysunadilar. Ular o'z faoliyat turi bo'yicha zarur vakolat va mas'uliyatga egalar.

O'z navbatida bosh muxandis bevosita ishlab chiqarish uchastkalari boshliqlari, xavfsizlik texnikasi bo'yicha muxandis, mexanika va , yongin xavfsizligi bo'limi va sifatni nazorat qilish bo'limlari faoliyatiga rahbarlik qiladi.

Korxona boshligi yakkaboshchilik tamoyillari asosida rahbarlik qiladi va unga ixtiyoridagi barcha resurslardan oqilona foydalanish, davlat topshiriqlarini o'z vaqtida sifatli bajarilishini ta'minlash, texnika taraqqiyotini amalga oshirish, mehnat unumdorligin to'xtovsiz oshirish, ishchi kuchlarining ish sharoitlarini va moddiy axvolini yaxshilash vazifalari yuklanadi. Korxona boshlig'i jamiyat faoliyatiga oid buyruqlarni chiqaradi, quruvchi va mutaxssislarni ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi va x.k.

«O'zbekneftegaz» DXK SP 1-korxonasidagi asosiy funktsional bo'limlardan biri – Reja iqtisod bo'limidir. Bu bo'lim korxonaning istiqbol va joriy biznes rejasini tuzadi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqot iqtisodiy tajriba ishlarini olib boradi, tuchastka hamda ishlab chiqarish bo'limlarini rejalarini ishlab chiqishda qatnashadi.

Bosh buxgalter va uning xodimlari korxona moddiy va pul boyliklarini hisobini olib boradi, ishchi va xizmatchilarga ish xaqi hisoblaydi va tarqatadi, mahsulot tannarxiga kiradigan harajatlarni hisobga oladi va mahsulot tannarxining kalkulyatsiyasini tuzadi, hisobot va balanslar tuzadi va ularni tahlil qiladi, uchastka va bo'linmalarning barcha turdagi resurslardan to'g'ri foydalanayotganligini nazorat qiladi.

Ta'minot bo'limi jamiyatni zarur bo'lgan qurilish xom – ashyosi, materiallar, moylash va yoqilg'i bilan ta'minlaydi, ularning to'g'ri saqlanishi taqsimlanishini boshqaradi va xo'jalik aloqalarini o'rnatadi.

Texnikaviy nazorat bo'limi korxonaga keltirilayotgan qurilish xom ashyosi, materiallar, jixozlar (dastlabki nazorat) va topshirilayotgan ob'ektlarni (yakuniy nazorat) sifatini nazorat qiladi, o'lchov asboblarini tekshiradi, qurilish – montaj jarayonlarini borishini nazorat qiladi.

korxona Bosh muxandisi «Bosh mexanik bo'limiga», «Ishlab chiqarish bolimiga», «Mexanizmlarni ta'mirlash sexiga», «Dispetcherlik bo'limiga», «Oxak sexiga», «Kapital qurilish bo'limiga», «Kichik mexanizatsiya bo'limiga», «Yong'indan saqlash bo'limiga» va «Qurilish – ta'mirlash uchastkalariga» bevosita rahbarlik qiladi.

2.2. «O'zbekneftegaz» DXK SP 1- korxonasining 2016 –2018 yillardagi asosiy texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlarining tahlili

Har bir korxonada mahsulot tannarxini pasaytirish darajasini hisoblash uchun eng avvalo undagi rezervlarni, ya'ni foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlashi kerak. Ular ko'zga tashlanadigan, yuzaki, juda murakkab, ko'z ilg'amaydigan bo'lishi mumkin. Faqat chuqur, har taraflama iqtisodiy–texnik tahlildan keyin ularni aniqlash, topish mumkin bo'ladi.

Korxona yoki tarmoq faoliyatini tahlil etish uchun rezervlarni ikkiga bo'lib ko'rish mumkin:

- tashkiliy–texnikaviy rezervlar;
- ijtimoiy–iqtisodiy rezervlar.

Mana shu yuqorida keltirilgan barcha rezervlar, ya'ni foydalanilmayotgan imkoniyatlarni safarbar etish, ishga solish hamda shu asosda tannarxni keskin pasaytirish uchun bir qator omillardan keng foydalanish va ularni hisoblab chiqish kerak.

Ishlab chiqarishning tarmoq xususiyatlarini hisobga olish, tannarx strukturasini va ishlab chiqarish harajatlarini iqtisodiy tahlil qilish ishlab chiqarishda yuz beradigan asosiy texnik–iqtisodiy jarayonlarni o'rganish, ishlab chiqarishdagi chiqimlarni kamaytirishning asosiy yo'llarini belgilashga imkon beradi.

Boshqaruv jarayoni qayerda amalga oshirilishidan qat'iy nazar, siklli (davriy) va ayni vaqtda uzluksiz hisoblanadi. Boshqaruv davri maqsadning aniqlanishidan unga erishilgungacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Demak, uning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

- maqsadni shakllantirish (belgilash);
- maqsadni rejalashtirish va bashorat qilish;
- qabul qilingan qarorlar yoki maqsadli vazifalarni muvofiqlashtirish;
- erishilgan natijalarni tahlil etish va baholash;
- yangi boshqaruvli tizimni tanlab olish va aniqlash.

Bu barcha sikllar uchun eng muhim korxonaviy tizim hisoblanadi.

Korxona ishlab chiqarishini boshqarishda ham bir qator umumfalsafiy usullarni qo'llash mumkin. Korxonani boshqarishning sir–asrorlarini ilmiy asosda o'rganish, tahlil qilish maqsadida quyidagi usullardan keng foydalaniladi:

1. Tizimli yondashuv
2. Kompleks yondashuv
3. Tarkibiy yondashuv
4. Vaziyatli yondashuv
5. Integratsion yondashuv
6. Modellashtirish yondashuv
7. Iqtisodiy matematik yondashuv
8. Kuzatish usuli
9. Tajriba usuli

Modellashtirish va iqtisodiy matematik usullardan foydalanish jarayonida turli chizmalar, xomaki materiallar tayyorlanadi va hisoblash texnikasi va kompyuter texnologiyalarning barcha imkoniyatlari ishga solinadi.

Kuzatish usulida korxona ishlab chiqarishi to'g'risidagi ma'lumotlarni rejali, bashoratli, ilmiy jihatdan namunali uyushtirilgan asosda to'plash yo'lga qo'yiladi.

Va nihoyat, sotsiologik kuzatuv usulida korxona ishlab chiqarishini ilmiy jihatdan asoslangan boshqarish maqsadida turli anketali so'rovlar, suhbatlar, testlar va inforatuzilmaviy tahlillarni o'tkazish kerak bo'ladi.

Iqtisodiy samaradorlikni tahlil etish nafaqat harajat va resurslar asosiy turlaridan foydalanish darajasini tahlil etishni o'z ichiga olishi kerak, balki uning butunlay o'zgarishini, yig'indi (integral) samaradorlikni baholashni ham o'z ichiga oladi. Mana shu maqsadda iqtisodiy samaradorlikning umumlashtiruvchi, kompleks ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi va ishlab chiqarishning oqibat natijalari shu ko'rsatkichlar yordamida tahlil etiladi. Bunday ko'rsatkichlar turli harajatlar va resurslarning darajasini yig'ilgan turda, har xil omillarning ta'sirini hisobga oladi.

Ishlab chiqarish – texnik vazifani hal etishning biror variantining ijtimoiy – iqtisodiy afzalligini asoslab berish, taqdim etilgan variantlardan eng samaraligini tanlab olish maqsadida aniqlanadigan samaradorlik qiyosiy samaradorlik deb

ataladi. Qiyosiy samaradorlik ikki va undan ortiq variantlarni taqqoslash va shu asosda bir variantning boshqa variantlardan ustunligi va uning optimalligini aniqlab beradi.

Ish haqini tashkil etish iqtisodiy samaradorlikning mezoni sifatida xo'jalik hisobi daromadining ish haqi fondiga nisbatan ustuvor o'sishi hisoblanadi. Bunday ustuvor o'sish ta'min etilmagan hollarda sabablarni sinchiklab tahlil qilish, foydani ko'paytirishga qaratilgan yoki mehnatga to'lanadigan harajatlarni qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha tadbirlarni ishlab chiqish zarur bo'ladi.

Mutaxassislar va xizmatchilar mehnatini, shuningdek, xodimlarning ayrim toifalari mehnatini normalashni yaxshilash ularning ish bilan ta'minlanish darajasini, vazifalarning oqilona taqsimlanishini, boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish va hozirgi zamon texnikaviy vositalarini joriy etishni tahlil qilish asosida amalga oshirilishi lozim. Boshqaruvning ortiqcha bo'g'inlarini qisqartirish va tartibga solish, yordamchi xizmat ko'rsatuvchi va boshqaruv xodimlari sonini qisqartirish yuzasidan ish olib borish zarur.

Tadqiqotlarimiz ob'ekti bo'lgan «O'zbekneftgaz» DXK SP 1-korxonasining keyingi uch yillik faoliyatini tahlil qilishdan maqsad ham yerdagi iqtisodiy samaradorlikni oshirishning yashirin rezarvlari topish va amaliyotga tadbiiq etishdir.

«O'zbekneftgaz» DXK SP 1-korxonasining faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish uchun quyidagi 2.2.1 – jadvaldan foydalanimiz:

«O'zbekneftgaz» Davlat xolding kompaniyasi
1- korxonasining 2016 – 2018 yillardagi
iqtisodiy ko'rsatkichlari
D I N A M I K A S I *

№	Iqtisodiy ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Y i l l a r			D i n a m i k a s i			
			2016	2017	2018	2017/2016yy		2018/2016 yy	
						+, —	%	+, —	%
1	Qurilish –montaj ishlari xajmi	mln.so'm	35200,5	42510,7	52100,7	7310,2	120,77	16900,2	148,01
2	Qurilish –montaj ishlari tannarxi	mln.so'm	27570,6	32450,5	39590,5	4879,9	117,70	12019,9	143,60
3	Yalpi moliyaviy natija	mln.so'm	7629,9	10060,2	12510,2	2430,3	131,85	4880,3	163,96
4	Asosiy vositalar o'rtacha qiymati	mln.so'm	11450,6	17550,2	19580,5	6099,6	153,27	8129,9	171,00
5	Ay. mablag'' qiymati	mln.so'm	35210,1	32550,2	33210,5	-2659,9	92,45	-1999,6	94,32
6	Personal	kishi	202	204	210	2	100,99	8	103,96
6.1.	Quruvchilar soni	kishi	170	172	178	2	101,18	8	104,71
6.2.	Rahbar va mutaxassislar	kishi	32	32	32	0	100,00	0	100,00
7	Mehnat unumdorligi	mln.so'm	207,06	247,16	292,70	40,09	119,36	85,64	141,36
8	Yillik ish haqi fondi	mln.so'm	2142,00	2838,00	3333,56	696	132,49	1191,6	155,63
9	1–so'mlik tovardagi xarajatlar salmog'i	%	78,33	76,33	75,99	-2		-2,34	
10	Fond qaytishi (1 qator/4 qator)	so'm	3,07	3,39	3,86	0,32	110,28	0,79	125,56
11	Fondlar sigimi (4 qator/1 qator)	so'm	0,33	0,41	0,38	0,09	126,91	0,05	115,53
12	Um. rentabellik	%	16,35	20,08	23,70	3,73		7,35	
13	Ma'muriy xarajatlar	mln.so'm	381,2	404,16	435,35	22,96	106,02	54,15	114,21
14	Sof foyda	mln.so'm	94,35	95,17	125,54	0,82	100,87	31,19	133,06

* Manba: "1 –qurilish korxonasining statistik hisobotlari

Yuqoridagi 2.2.1 – jadvalda ko‘rinib turibdiki, korxona qurilish montaj ishlarini yildan yilga bir ma’romda barqaror o‘stirib kelmoqda. Agar korxona 2016 yili 35200,5 mln.so‘m qurilish montaj ishlarini bajargan bo‘lsa, keyingi 2017 yilda esa bu ko‘rsatkich 120,77 foizga ko‘paytirilib, qurilish montaj ishlarining xajmi 42510,7 mln.so‘mga yetkazildi. Uchinchi yili, ya’ni 2018 yilda qurilish montaj ishlarining xajmi 52100,7 mln.so‘mga yetkazilib, bu ko‘rsatkich bazis yilga nisbatan 148,01 %ga ko‘paytirildi. Ushbu tahlilni amalga oshirishda quyidagi (1) formuladan foydalanildi:

$$V_n = \frac{V_{1x}}{V_b} \times 100\% \quad (2.2.1)$$

Bu yerda

V_n – hisobot yilida bazis yilgan nisbatan qurilish montaj ishlarining xajmining o‘zgarishi dinamikasi, % hisobida;

V_{1x} va V_{2x} – hisobot yillaridagi (birinchi hisobot yili – 2017 yil, ikkinchi hisobot yili – 2018 yilda) qurilish montaj ishlarining xajmi, mln.so‘m hisobida;

V_b – bazis yil – 2016 yildagi qurilish montaj ishlarining xajmi, mln.so‘m hisobida;

Ushbu formuladan foydalanib birinchi hisobot yili – 2017 yilda bazis yil – 2016 yilga nisbatan qurilish montaj ishlar xajmini usishini (dinamikasi) topamiz:

$$V_n = \frac{V_{1x}}{V_b} \times 100\% = \frac{42510,7}{35200,5} \times 100\% = 120,77 \%$$

Yoki absolyut ko‘rsatigichda: $42510,7 - 35200,5 = 731,2$ mln.so‘m.

$$V_n = \frac{V_{2x}}{V_b} \times 100\% = \frac{52100,7}{35200,5} \times 100\% = 148,01\%$$

Yoki absolyut ko'rsatigichda: $52100,7 - 35200,5 = 1690,1$ mln.so'm.

Yalpi moliyaviy natijaning (2.2.1 – jadval, 3–qator) o'zgarish dinamikasini topish esa 2 – formuladan foydalanimiz, har bir yil uchun aloxida hisoblaymiz:

$$F_n = \frac{F_{1x}}{F_b} \times 100\% \quad (2.2.2)$$

Bu yerda

F_d – yalpi moliyaviy natijaning o'zgarish dinamikasi, foiz hisobida;

F_{1x} va **F_{2x}** – hisobot yillaridagi (birinchi hisobot yili – 2017 yil, ikkinchi hisobot yili – 2018 yilda) yalpi moliyaviy natija summasi, mln.so'm hisobida;

F_b – bazis yil – 2016 yildagi yalpi moliyaviy natija summasi, mln.so'm hisobida;

Ushbu formuladan foydalanib 2017 yilni 2016 yilga nisbatini topamiz:

$$F_n = \frac{F_{1x}}{F_b} \times 100\% = \frac{10060,2}{7620,9} \times 100\% = 131,89\%$$

Yoki absolyut ko'rsatkichda ifodalanishi:


$$F_n = 10060,2 - 7620,9 = 243,3 \text{ mln.so'm}$$

Endi ushbu formuladan foydalanib 2018 yilni 2016 yilga nisbatini topamiz:

$$F_n = \frac{F_{2x}}{F_b} \times 100\% = \frac{12510,1}{7620,9} \times 100\% = 163,99\%$$

Yoki absolyut ko'rsatkichda ifodalanishi:

$$F_n = 12510,1 - 7620,9 = 488,2 \text{ mln.so'm}$$



2.2.1 – rasm. "O'zbekneftegaz" Davlat xolding kompaniyasi 1- korxonasining 2016 – 2018 yillardagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari diagrammasi

Ushbu hisob kitoblardan ko'rinib turibdiki, «O'zbekneftegaz» Davlat xolding kompaniyasi 1- korxonasining 2016 – 2018 yillar ichida uzining yalpi moliyaviy natijasini 163,99 foizga yoki 488,2 mln.so'mga oshirishga erishgan.

Har kandy tashkilotning umumiy iqtisodiy rivojlanishini ko'rsatuvchi ko'rsatkich – bu tashkilotlarning umumiy rentabelligi. Bu ko'rsatkichni (2.2.1 – jadval, 3–qator) topish uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$Ru = \frac{F}{Av.q. + Ay.m.q.} \times 100\% \quad (2.2.3.)$$

Bu yerda

Ru – umumiy rentabellik, foiz hisobida;

Av.q. – asosiy vositalarning yillik o'rtacha qiymati, mln.so'm;

Ay.m.q. – aylanma mablag'larning yil oxiriga qiymati, mln so'm.

«O'zbekneftgaz» Davlat xolding kompaniyasi 1- korxonasining 2016 yildagi umumiy rentabelligini 3 – formuladan foydalanib topamiz:

$$Ru = \frac{F}{Av.q. + Ay.m.q.} \times 100\% = \frac{7620,9}{11450,6+35210,1} \times 100\% = 16,35 \%$$

2017 yildagi umumiy rentabelligini ushbu formuladan foydalanib topamiz:

$$Ru = \frac{F}{Av.q. + Ay.m.q.} \times 100\% = \frac{10060,2}{17550,2 + 32550,2} \times 100\% = 20,08 \%$$


2018 yildagi umumiy rentabelligini ushbu formuladan foydalanib topamiz:

$$Ru = \frac{F}{Av.q. + Ay.m.q.} \times 100\% = \frac{12510,1}{19580,5+33210,5} \times 100\% = 23,70\%$$

O'tgan keyingi uch yil ichida «O'zbekneftgaz» Davlat xolding kompaniyasi 1- korxonasida inson omiliga katta e'tibor qaratildi. Bu davr ichida korxonaning ish xaqi fondi 669,3 mln.so'mdan (2016 yil) 895,5 mln.so'mga(2018yil), ya'ni 133.8 % ga oshdi. Agar «inflyatsiya daajasining usish sur'ati prognoz ko'rsatkichlari doirasida saqlanib 7 foizdan oshmagan»⁴ligini hisobga oladigan bo'lsak, bu usish nafaqat inflatsiyani ko'plab kolmasdan ishchi – xizmatchilarning real daromadlarini

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018y. www.turkiston.uz

ham oshib borganini ko'rsatib turibdi. Bu ko'rsatkich quyidagi 2.2.2 –rasmda yaqqol ko'rinadi:



2.2.2 – rasm. «O'zbekneftegaz» DXK 1- korxonasining 2016 – 2018 yillardagi qurilish montaj ishlari xajmi va ish xaqi fondi dinamikasi grafigi

Ushbu grafikdan ko'rinib turibdiki, piravord natijada quruvchilarning yillik mehnat unumdorligi (2.2.1 – jadval, 7–qator) uch yil ichida 20,71 mln.so'mdan (2016yil), 24,72 mln.so'm (2017yil), 29,27 mln.so'mgacha, ya'ni 142,85 %ga oshdi. «O'zbekneftegaz» Davlat xolding kompaniyasi 1- korxonasi rahbariyati va iqtisodchilarining bir iqtisodiy bilimdonligini ma'qo'llaymizki, uch yil ichida mehnat unumdorligi 142,85%ga oshgan bir xolda, ish xaqi fondini shu davr ichida 138,3 %ga oshirganlar, bu iqtisodiy samaradorlik tomonidan juda to'g'ri qilingan.

Qurilish – montaj xajmining yildan – yilga o'sib borishida nafaqat inson omili balki asosiy fondlarni ham yidan yilga yangilab borilmoqda. Uch yil ichida ularning qiymati 170,96%ga ko'paydi, ya'ni 812,9 mln.so'mlik asosiy vositalar sotib olindi, jumladan 2 dona maxsus yuk kutaruvchi avtomashina, 8ta beton qorishmasini tayyorlovchi, XXR da ishlab chikarilgan mexanizm majmuasi va Boshqa kichik mexanizmlar sotib olindi.

1- korxonasining sof foydasi (2.2.1 – jadval, 14 – qator) ham yildan yilga ko'payib bormoqda uch yil ichida 94,35 mln.so'mdan (2016yil), 95,17 mln.so'm (2017yil), 125,54 mln.so'mgacha, ya'ni 133,06 %ga ko'paydi.

2.3. «O'zbekneftegaz» DXK SP-1 korxonasida qurilish ishlarini tashkil qilish holatining tahlili

Qurilish majmuasining bozor munosabatlariga o'tishdagi asosiy tamoyillari ham, qo'shimcha tamoyillari ham qurilish amaliyotining boy hayotiy tajribasining o'rnini bosa olmaydi. Nazariyaning amaliyotdan farqi ham, bugunning ertadan farqi ham aslida shudir. Ammo bu tamoyillardan birgalikda foydalanish va, yanada muhimrog'i, ularni davr talabidan, hayot talabidan kelib chiqqan holda boyitish, to'ldirish qurilish majmuasining bozor munosabatlariga o'tkazilishini tezlashtiradi va shu yo'l bilan butun milliy iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar to'g'risidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida korxona va tashkilot rahbarlari oldiga real sektor korxonalarini rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalarni qo'ydi. Bu vazifalarni bajarish uchun ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish texnik va texnologik qayta jihozlash bilan bir qatorda quruvchi va xodimlarni qurilish ishlarini yaxshilashlarini talab qilinadi. Qurilish ob'ekti sistematik va kompleks tahlil qilinadi. Sistematik tahlilda doimo o'zgarib turuvchi bozor muxitini tahlil qilishdan, qurilish ob'ektida ishlab chiqarishni foydali va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun tahlil qilinadi.

Qurilish ob'ektida ishlab chiqarishni qurilish ob'ektini eng oddiy usuli haqiqiy ko'rsatkichlarni reja (normativ) ko'rsatkichlariga solishtirish bo'lib hisoblanadi.

Qurilish ob'ekti sifati samaradorligini qurilish ob'ektini murakkab uslubi esa oxirgi faoliyat natijalarini o'zaro aloqalarini, xarajatlar bilan resurslarni, shuningdek turli omillar ta'sirini qurilish ob'ektidan iborat.

Ishlab chiqarish(qurilish) amaliyotida ikkita tahlil turini farqlash mumkin, ya'ni:

1. Strategik tahlil;
2. Operativ tahlil.

Strategik tahlil qurilish ob'ektida ishlab chiqarishni kuchli va o'jiz tomonlarini, imkoniyatlarini va xavf-xatarlarini anaklashga yo'naltirilgandir. Strategik tahlil asosan qurilish ob'ektida ishlab chiqarishni sifat xarakteristikalarini (tavsifnomasini) beradi.

Operativ tahlil qurilish ob'ektida ishlab chiqarishni faoliyat natijalarini qurilish ob'ektiga yo'naltirilgan bo'ladi. Operativ tahlil qurilish ob'ektida ishlab chiqarishni ta'minlashda xarajatlarni optimallashtirishda muxim rol uynaydi, u resurslarni boshqarishni samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi. Operativ tahlil ishlab chiqarish(qurilish) xo'jalik faoliyatini barcha tomon va jihatlariga taalukli bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Ishlab chiqarish(qurilish) faoliyati natijalarini tahlil qilish
- ishlab chiqarish(qurilish) xarajatlari tahlili
- qurilish ob'ekti tahlili

Har qanday ishlab chiqarish(qurilish) faoliyati o'zini katta kichikligiga, faoliyat yunalishiga foydador yoki zarar ko'ruvchi ekanligidan qat'iy nazar bozor muxiti bilan o'zaro harakat qiluvchi murakkab tizimdir. Ishlab chiqarish(qurilish) faoliyatini birgina ko'rsatkich bilan, ya'ni masalan, foyda ko'rsatkichi bilan ifodalash mumkin emas. U ko'rsatkichlar tizimiga asoslanadi. Bunday ko'rsatkichlarga - foyda, sotilgan qurilish ob'ekti hajmi yoki ko'rsatilgan xizmat hajmi, moddiy xarajatlar, mehnat haqi fondi, ishchilar soni va xokazolar, ya'ni ishlab chiqarish(qurilish) faoliyatining oxirgi natijalarini xarakterlovchi ko'rsatkichlar kiradi.

Har qanday ishlab chiqarishni rivojlantirish va yuksak darajaga ko'tarish uchun uni boshqarish kerak bo'ladi. «Boshqarish» iborasini qurilish ob'ekti sifatiga oid qo'llaganda, qurilish ob'ekti sifati va uning raqobatbardoshligini doimiy nazorat qilish, uning belgilovchi shartlar va omillarini maqsadga muvofiq ta'sir qildirish yo'llari bilan qurilish ob'ektida ishlab chiqarishni loyihalashtirish, ishlab chiqarish(qurilish) va foydalanishda uning zaurur darajada o'rnatilishini, ta'minlanishini va saqlanishini tushunmoq kerak.

Qurilish montaj ishlari uchun zarur materiallar, konstruksiyalar va ishni olib borish O'zbekiston Respublikasi Arxitektura va Qurilish qo'mitasi ishlab chiqarayotgan QMQ, Davlat standartlar va texnik sharoitlar asosida amalga oshiriladi.

Qurilish me'yorlari va qoidalari (QMQ)- qurilishdagi eng asosiy me'yoriy xujjat hisoblanadi. QMQ besh qismidan iborat bo'lib: 1- tashkil qilish, boshqarish va iqtisodiyot; 2- loyihalash me'yorlari; 3- ishni tashkil qilish, bajarish va qabul qilish; 4-smeta me'yorlari va 5- ashyo va texnik resurslar sarflari me'yorlari.

Qurilish ishlab chiqarishning texnologiyasi va uni tashkil qilish QMQ ning uchinchi qismida belgilangan. Unda qurilish montaj ishlarini bajarishga qo'yilgan talablar, uni xavfsiz bajarish, ishni qabul qilish, shuningdek bajarilgan ishni sifatini nazorat qilish keltirilgan.

QMQ - barcha loyiha institutlari, qurilish tashkilotlari, qurilish ashyolari va konstruksiyalarni ishlab chiqarish korxonalari qaysi vazirlikka qarashidan qat'iy nazar, shuningdek bajarilgan ishni qabul qiluvchi muassasalar uchun rioya qilish majburiydir.

Joy sharoitidan va ishning xususiyatidan kelib chiqqan holda QMQ ga qo'shimcha tarzda ko'rsatmalar va texnik sharoitlar ishlab chiqilishi mumkin.

QMQLar qurilishning texnik holatini o'sishi, unga ilg'or usullarni qo'llash davomida qayta ko'rilib, yangilanib boriladi.

Ma'lumki, har qanday tarmoqdagi ishlab chiqarish jarayoni uchta asosiy element: mehnat qurollari, mehnat predmetlari va bevosita mehnatning o'zidan, ya'ni inson faoliyatidan tashkil topadi. Bu elementlar birgalikda ishlab chiqarishning

resurs asosini tashkil qiladi va ko'p jihatdan muayyan bir xo'jalik sub'ektining - korxonaning, qurilish tashkilotining yoki butun tarmoqning ishlab chiqarish salohiyatini belgilab beradi. Mazkur elementlarsiz ishlab chiqarish jarayoni mutlaqo mavjud bo'la olmaydi.

Resurslar tushunchasi - bu pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, qonunlar, joriy va kelgusidagi imkoniyatlar, daromadlar va ularning manbalaridir. Resurslar tabiiy, moddiy, iqtisodiy, moliyaviy resurslar, mehnat resurslari va hokazolar bo'lishi mumkin. Korxonalar, tarmoqlar va butun mamlakatning resurs imkoniyatlari qanchalik keng va katta bo'lsa, iqtisodiyot va uning rivojlanish istiqbollari ham shunchalik barqaror bo'ladi.

Ishlab chiqarish salohiyati - bu korxona, tashkilot va butun tarmoqning berilgan resurslar asosida u yoki bu hajmdagi mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati yoki qobiliyatidir. SHuning uchun ham, ishlab chiqarish salohiyatini ishlab chiqarishning resurs imkoniyatlariga taqqoslanadi.

Ishlab chiqarish salohiyatining resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga o'zaro bog'liqligini ishlab chiqarish sharoitlari hamda u yoki bu mahsulotga bo'lgan ehtiyojlarni (iste'molchilik talabini) hisobga olgan holda tasvirlash mumkin.

Ishlab chiqarish salohiyatini xo'jalik sub'ektining ishlab chiqarish omillari majmuasi deb ko'rsatish mumkin. Bu omillar shu su'ektning xalq xo'jaligi va aholining ma'lum davrdagi ehtiyojlarini hisobga olgan holda turli moddiy ne'matlar yaratish yoki xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Ishlab chiqarish salohiyatining rivojlanishini o'rganishda uning faqat miqdoriy baholash mumkin bo'lgan material-moddiy omillarini emas, balki uning sifat omillarini (mehnatni va ishlab chiqarishni tashkil qilish shart-sharoitlari, mehnat motivatsiyasi, xo'jalik mexanizmi va boshqalarni) ham tahlil qilish lozim. Bundan tashqari, ishlab chiqarish salohiyatining tarkibini aniqlash ham muhim bo'lib, unda ishlab chiqarish resurslarining ro'yxati va nisbati, ishlab chiqarish

jarayonida mehnat va resurslarning o'zviy uyg'unligi yuz beradigan ishlab chiqarish sharoitlari aks ettirilishi lozim.

Ishlab chiqarish salohiyati va resurslar o'zaro bog'liq kategoriyalar sifatida rivojlanish va samaradorlikka ta'sir ko'rsatibgina qolmay, balki o'z navbatida ichki va tashqi omillarga, avvalo fan-texnika taraqqiyotiga, boshqaruv tizimiga va axborot bazasiga bog'liqdir.

«O'zbekneftegaz» DXK SP-1 korxonasidagi asosiy fondlar - ham moddiy ishlab chiqarish sohasida (asosiy ishlab chiqarish fondlari), ham noishlab chiqarish sohasida (noishlab chiqarish asosiy fondlari) band bo'lgan material-moddiy qiymatlar majmuasi hisoblanadi. qurilish xalq xo'jaligining turli tarmoqlari uchun turli korxonalar, bino va inshootlarni qurish davomida mamlakat uchun asosiy fondlarni bunyod etishda ishtiroq etadi, biroq o'z navbatida o'zi ham ulardan mehnat va ishlab chiqarish qurollari sifatida foydalanadi. SHuning uchun qurilish mahsuloti sifatida va zaruriy ishlab chiqarish qurollari sifatidagi asosiy fondlarni bir-biridan ajratish lozim.

Asosiy fondlarni ko'paytirishni tahlil qilish, baholash va strategiyasini belgilab olishda ularning tuzilmasi - asosiy fondlarning ayrim guruhlarining ularning jami qiymatidagi ulushi - katta ahamiyat kasb etadi. Mashina va asbob-uskunalarining, transport vositalarining jami asosiy fondlar qiymatidagi ulushi qanchalik katta bo'lsa, (qolgan shartlar teng bo'lganda) mahsulot ishlab chiqarish hajmi ham, fond qaytimi ko'rsatkichi ham shu qadar yuqori bo'ladi. SHuning uchun asosiy ishlab chiqarish fondlarining tuzilmasini yaxshilashga ishlab chiqarish va fond qaytimini oshirishning muhim sharti deb qaraladi.

O'tgan 3 yil ichida Asosiy vositalarning yillik o'rtacha qiymati 8129.9 mln.so'mga ko'paygan yoki 171 foizga oshgan. Ulardan foydalanish ko'rsatkichi esa - Fond qaytishi 3.07 so'mdan 3.86 so'mga oshib 125.56 foizni tashkil qildi.

$$F_q = \frac{V}{A_{vq}} \quad (2.1.4)$$

$$F^1_q = 35200,5 / 11450,6 = 3,07 \text{ so'm}$$

$$F^2_q = 42510,7 / 17550,2 = 3,39 \text{ so'm}$$

$$F^3_q = 52100,7 / 19580,7 = 3,86 \text{ so'm}$$

F^1_q , F^2_q , va F^3_q - mos ravishda 2016, 2017 va 2018 yillar

Fondlarning rentabelligi - asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati birligiga to'g'ri keladigan foyda miqdori.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarini baholash va ulardan foydalanishni tahlil qilishda mehnat va ishlab chiqarishning fond bilan qurollanganligi hamda uning yana bir turi - mehnat va ishlab chiqarishning mexanik qurollanganligi kabi ko'rsatkichlarni ham e'tiborga olish lozim.

Qurilish tashkilotlari boshqa tarmoqlardagi korxonalar kabi, muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun faqat asosiy emas, balki aylanma vositalar ham kerak bo'lib, ular aylanma fondlar va muomala fondlariga avanslangan pul mablag'laridan iborat. Ko'pincha, bu har doim ham to'g'ri bo'lmasa-da, aylanma vositalar aylanma fondlarning pullik ifodasi deb ataladi.

Aylanma fondlar - bir ishlab chiqarish tsiklida to'liq foydalaniladigan aylanma vositalarning bir qismi bo'lib, shu tsikldan so'ng o'zining dastlabki natural-moddiy shaklini yo'qotib, o'z qiymatlarini to'laligicha hosil bo'layotgan mahsulotga o'tkazadi.

Muomala fondi - bu korxona yoki tashkilotning pul mablag'lari hamda hisob-kitoblardagi mablag'lardir. Demak, korxonaning aylanma vositalari - uning aylanma va muomala fondlari yig'indisidir.

Ishlab chiqarish jarayonidagi aylanma fondlar - bu avvalo tugallanmagan ishlab chiqarish (qurilish) va kelgusi davr harajatlaridir (vaqtinchalik bino va inshootlar qurishga, asbob-uskunalarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish, sinovlar o'tkazish va hokazolarga sarflanadigan harajatlar).

Bu harajatlarning o'ziga xos xususiyati shuki, ular bir hisobot davrida bir marta amalga oshiriladi lekin mahsulotning (xizmatlarning) tannarxiga esa bo'laklab kiritib boriladi, chunki ular faqat joriy emas, balki kelgusida davrlardagi ishlab chiqarish bilan ham bog'liqdir.

Bugungi bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarish zahiralarining qiymatini to'g'ri baholash juda muhimdir. Amaliyotdan ma'lum bo'lishicha, bu masalaga korxona va tashkilotlar tomonidan noto'g'ri yondashish (ular o'z zahiralarini ko'paytirishga intiladilar) ularda kerakli aylanma vositalarning, shu jumladan aylanma fondlarning yetishmasligiga, ba'zan esa hatto mutlaqo mavjud bo'lmasligiga olib keladi.

Barqaror passivlar, masalan, ishchi va xizmatchilar oldidagi ish haqi bo'yicha minimal ko'chuvchi qarzдорlik, turli fondlarga (bandlik, sug'urta, nafaqa va boshqa fondlar) ajratmalar bo'yicha qarzдорlik, soliqlar, yig'imlar va byudjetga to'lovlar bo'yicha va boshqa qarzlار ham aylanma vositalarning muhim ichki manbalari qatoriga kiradi.

Bozor sharoitlarida birinchidan, aylanma mablag'lar yetarligha bo'lishi va ishlab chiqarish ehtiyojlariga bog'liq bo'lishi, ikkinchidan imkon qadar samarali foydalanilishi juda muhimdir. Ushbu ikkinchi holat uchun amaliyotda ikki ko'rsatkich - mablag'larning aylanuvchanlik koeffitsienti va bir aylanmaning o'rtacha muddati qo'llaniladi.

Bir aylanmaning o'rtacha davomiyligi ($D_{o'r}$) hisobot davri kunlarining aylanuvchanlik koeffitsienti qiymatiga nisbati bo'lib, quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$D_{yp} = \frac{T_p}{K_{ayl}} \quad (2.1.5)$$

bu yerda T_r – hisobot davri (360 kun, 180 kun, 90 kun).

Aylanma vositalarning aylanish davomiyligi qanchalik kichik yoki sotilgan mahsulot hajmi o'zgarmas bo'lgandagi aylanishlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, aylanma vositalar shunchalik kamroq miqdorda talab qilinadi va aksincha, aylanma vositalar qanchalik tez aylanib tursa, ulardan shunchalik samarali foydalaniladi. Aylanma vositalarning aylanishini jadallashtirish samarasi resurslarning ozod bo'lishi, ulardan foydalanishning yaxshilanishi tufayli ularga bo'lgan ehtiyojning kamayishida aks etadi.

«O'zbekneftegaz» Davlat xolding kompaniyasi 1- korxonasining 2016 yildagi aylanma mablag'larning aylanish koeffitsientini 2.1.6 – formuladan foydalanib topamiz:

$$K_{a.m.a} = \frac{V}{Ay.m.q.} = \frac{35200,5}{35210,1} = 1,0$$

2017 yildagi aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti:

$$K_{a.m.a} = \frac{V}{Ay.m.q.} = \frac{42510,7}{32550,2} = 1,31$$

2018 yildagi aylanma mablag'larning aylanish koeffitsienti:

$$K_{a.m.a} = \frac{V}{Ay.m.q.} = \frac{52100,7}{33210,5} = 1,57$$

Ushbu koeffitsient foydalanib aylanma mablag'larning aylanish davrini (Da)topamiz:

$$Da = \frac{360}{K_{a.m.a}} \quad (2.3.6)$$

«O'zbekneftgaz» Davlat xolding kompaniyasi 1- korxonasining 2016 yildagi aylanma mablag'larning aylanish davrini 2.3.6 – formuladan foydalanib topamiz:

$$Da = \frac{360}{K_{a.m.a}} = \frac{360}{1.0} = 360 \text{ kun}$$

2017 yildagi aylanma mablag'larning aylanish davrini 2.3.6 – formuladan foydalanib topamiz:

$$Da = \frac{360}{K_{a.m.a}} = \frac{360}{1,31} = 274 \text{ kun}$$

2018 yildagi aylanma mablag'larning aylanish davrini 2.3.6 – formuladan foydalanib topamiz:

$$Da = \frac{360}{K_{a.m.a}} = \frac{360}{1.57} = 229 \text{ kun}$$

Amalga oshirilgan hisob kitoblardan ko'rinib turibdiki, «O'zbekneftgaz» Davlat xolding kompaniyasi 1- korxonasi keyingi uch yil ichida aylanma mablag'larning aylanish davrini 121 kunga qisqartigan. Natijada aylanma mablag'larga bo'lgan extiyoji ham qisqargan, ya'ni 220,0 mln.so'mga kamaygan. Ushbu yo'nalishda qilinadigan yana bir tadbir – foydalinishga topshirilayotgan ob'ektlar muddatini qisqartirish va ishlar sifatini yaxshilash talab qilinadi.

Qurilish ishlab chiqarishining resurslar bilan ta'minlanganligi - kapital qurilishning joriy va istiqbolli dasturlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Bozor sharoitlarida korxona va tashkilotlarning resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanishga bo'lgan munosabati miqdoriy va sifat jihatdan o'zgaradi.

Ishlab chiqarish fondlari (asosiy va aylanma) ishlab chiqarishning resurs asosini xarakterlaydi. Ular mehnat resurslari bilan birgalikda ishlab chiqarishning bir maromda davom etishini hamda sarflangan mablag'larning samaradorligini ta'minlaydi.

Ishlab chiqarish fondlari va kadrlar salohiyati ko'p jihatdan har bir qurilish tashkilotining va butun tarmoqning ishlab chiqarish salohiyatini (quvvatini) belgilab beradi.

Bozor sharoitlarida resurs salohiyatini shakllantirish va undan foydalanish avvalo korxona va tashkilotlarning vazifasidir. Davlat xo'jalik sub'ektlarining bu boradagi mustaqilligini rag'batlantiradi, holbuki ularni zarur hollarda qo'llab-quvvatlab ham turadi.

Qurilishdagi muhim vazifa - bu aylanma vositalarning aylanishini tezlashtirish va mehnat unumdorligini oshirishdir, bu esa o'z navbatida odamlarning mehnatga, resurslardan tejimli foydalanishga, atrof-muhitni muhofaza qilishga va boshqa shu kabilarga bo'lgan munosabatlariga bog'liqdir.

Bozor va bozor munosabatlari sharoitlarida har bir korxona, har bir qurilish tashkiloti o'zining resurs siyosatini ishlab chiqishi lozim bo'lib, bu siyosat bir tomondan, o'zining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga, ikkinchi tomondan esa - ishlab chiqarishning bir maromda borishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Qurilish ob'ektida ishlab chiqarishni yaxshilashga oid vazifalar va tadbirlar tuzilayotganda ularni amalga oshirish imkoniyatlari va maqsadga muvofiqligi texnikaviy-iqtisodiy jihatdan asoslab boriladi.

Ilmiy tadqiqotlarimiz ob'ekti qilib tanlab olingan «O'zbekneftegaz» Davlat xolding kompaniyasi SP-1 korxonasida qurilish ob'ektida ishlab chiqarishni yaxshilashga oid tadbirlar majmuasi ishlab chiqilgani aniqlandi va uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- qurilish ob'ektining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan asosiy tajriba va loyihalashtirish ishlari hamda tashkiliy-texnikaviy tadbirlar;
- ishlab chiqarish(qurilish) texnikasi va texnologiyasini takomillashtirishga oid tadbirlar;
- xom ashyo va materiallar sifatini oshirish bo'yicha ta'minlovchilarga qo'yiladigan talablar;
- qurilish ob'ektida ishlab chiqarishni oshirish bo'yicha o'tkaziladigan ilmiy-tadqiqot, tajriba va loyihalashtirish bo'yicha ilmiy-tekshirish, loyihalashtirish tashkilotlariga beriladigan topshiriqlar;
- texnikaviy xujjatlarni yaxshilash tadbirlari;
- texnologik intizomga rioya qilishni tekshirish sharoiti, ishlab chiqarishni o'lchov asboblari bilan ta'minlash, ularning aniq ishlashini kuzatib turish tadbirlari;
- standartlarni o'zlashtirish, ularga rioya qilish, buyumlarni unifikatsiyalashtirish, yuqori sifatli qurilish ob'ekti ishlab chiqarish, nuqsonlarning oldini olish va iste'molchilar tomonidan bo'ladigan noroziliklarni kamaytirish bo'yicha tadbirlar.

Ushbu va boshqa bir qator tadbirlarning o'z vaqtida bajarilishini to'la-to'kis ta'minlash uchun «O'zbekneftegaz» Davlat xolding kompaniyasi SP-1 korxonasida ularning bajarilish muddatlari, mas'ul kishilar, muayyan xarajatlar va ularning iqtisodiy samaradorligi, raqobatbardoshligi hamda boshqa ko'rsatkichlar belgilab qo'yilgan.

Ilmiy tadqiqotlarimiz ob'ekti qilib tanlab olingan «O'zbekneftegaz» Davlat xolding kompaniyasi SP-1 korxonasi qurib topshirgan ob'ektlar 2016 – 2018 yillar ichida tuzatib bo'lmaydigan kamchiliklar kuzatilmagan. Aniqlangan kamchiliklar

ham tez fursatlarda bartaraf etilgan. Keyingi uch yil davomida korxona biror marta ham buyurmachilarga sifat bo'yicha jarima to'lamagan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ilmiy tadqiqotlarimiz ob'ekti bo'lgan «O'zbekneftegaz» Davlat xolding kompaniyasi SP-1 korxonasida qurilish jarayonida va tugatilgan ob'ektlarning yuqori sifatda bo'lishi uchun ishlab chiqarishni oqilona tashkil etishga katta e'tibor berilmoqda.

III bob. «O'zbekneftegaz» DXK SP-1 korxonasida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishning asosiy yo'nalishlarini takomillashtirish

3.1. «O'zbekneftegaz» DXK SP-1 korxonasida ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirish

Bugungi bozor sharoitlarida, qurilish monopoliyadan chiqarilib, qurilish vazirliklari tugatilib, qurilish ishlab chiqarishini rejalashtirish va boshqarish sohasida qurilish tashkilotlariga keng huquqlar va imkoniyatlar berilgan. Bugungi kunda “yuqoridan” tasdiqlab beriladigan ko'rsatmalar, buyruqlar ro'yxati endi yo'q, ammo bu yuqoridagi yoki boshqa boshqaruv organari tomonidan nazorat qilinadigan va ayrim hollarda talab qilinadigan ko'rsatkichlar mutlaqo yo'q degani emas.

Qurilish tashkilotini (firmasini) iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish rejasi bir necha bo'limlarni o'z ichiga oladi. Ularning ichida markaziy va eng muhimi ishlab chiqarish dasturi yoki asosiy fondlar yoki ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish rejasi bo'lib, qiyma va natural ifodada ishlab chiqiladi.

Bugungi kundagi amaliyotda pudrat tashkilotlarining faolitada rejalashtirishning ikki xil turi mavjud:

- 1) texnik-iqtisodiy yoki yillik rejalashtirish;
- 2) operativ-ishlab chiqarish yoki joriy rejalashtirish.

Rejalashtirishning birinchi turi tashkilotning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining yillik rejasi, ya'ni avvallari qurilishning moliyaviy rejasi, ya'ni “stroyfinplan” deb atalgan rejani ishlab chiqishdan iborat. Unda qurilish tashkilotlarining ishlab chiqarish faoliyatidagi eng muhim ko'rsatkichlar aks ettiriladi. quyida ular sanab o'tilgan:

- ishga tushirilgan quvvatlar va ob'ektlar natural o'lchov birliklarida;

- korxonalarning genpudrat bo'yicha va o'z kuchlari bilan bajarayotgan qurilish-montaj ishlari hajmi, pullik o'lchovda;

- ish haqi fondi;
- ishlab chiqarish harajatlari;
- foyda summasi;
- byudjetga to'lovlar va byudjetdan ajratiladigan mablag'lar;
- ishchilarning soni va boshqalar.

Operativ-ishlab chiqarish rejalashtirishda yillik rejadagi vazifalarni nisbatan qisqaroq ish muddatlari uchun aniqlashtiriladi. U qurilish ishlab chiqarishining maromini yo'lga qo'yadi, salbiy nuqtalarni o'z vaqtida aniqlab, ularni bataraf qilish choralarini ko'radi.

Operativ-ishlab chiqarish rejalashtirishning yana bir muhim xususiyati uning qurilish uchastkalari boshliqlari, prorablar, qurilish ishlab chiqarishi masterlari yoki brigadirlari bilan ishlashga qaratilganligidir. Operativ rejalardagi vazifalarga ko'ra oylik, o'n kunlik va kunlik ishlarning jadvallari ishlab chiqiladi. Ular qurilish maydonchalarida ishlarni bir maromda tashkil qilish uchun o'ziga xos orientir bo'lib xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, ishlab chiqarishni rejalashtirish va boshqarishning xorijiy tajribasini hisobga olgan holda, qurilish tashkilotlari sanoat va boshqa korxonalarning tajribasiga ko'ra tobora biznes-rejalashtirishdan ko'proq foydalanmoqdalar. Biznes-rejalashtirish xo'jalik faoliyatini bozor talablari va kerakli resurslar va foyda olish imkoniyatlariga mos ravishda olib borishga imkon beradi. Biznes-reja qurilish tashkilotlarining (firmalarining) ishlab chiqarish faoliyatini tadbirkorlik faoliyati bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi. SHuning uchun uni qurilish korxonasining yaqin va o'zoq istiqboldagi rivojlanish strategiyasini belgilab beruvchi muhim hujjat sifatida qabul qilish kerak.

«O'zbekneftegaz» DXK SP-1 korxonasi mutaxassislariga biznes-rejani ishlab chiqayotganlarida quyidagilarni amalga oshirishlarini tavsiya qilamiz:

- tashkilotning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini atroflicha tahlil qilish, uning kuchli va zaif jihatlarini va xatarlarini aniqlash – SWOT tahlilini o'tkazish;
- muayyan iqtisodiy vazifalarni amalga oshirishda foydalaniladigan muayyan moliyaviy, texnik-iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni o'rganish;
- tannarx va foydani tahlil qilish, barcha turdagi harajatlarni, solqlarni va ishlab chiqarishni rivojlantiruvchi boshqa omillarni hisobga olish;
- bozordagi vaziyatlarni baholash, potentsial investorlarni (buyurtmachilarni) tanlash, qurilish tashkilotining faoliyatini barqarorlashtiruvchi asosli va o'zoq muddatli bitimlar tuzish.

Biznes-rejaning tarkibi va uning tafsilot darajasi ishlab chiqarish hajmlarigan, qurilayotgan ob'ektlarning xarakteriga, qurilish tashkilotining quvvati va boshqa ko'rsatkichlariga bog'liqdir. Biznes-rejaning asoslanganligi uning qanchalik real va hayotiyligini belgilab beradi.

Biznes-rejaning ahamiyati shundan iboratki, u qurilish tashkilotining, ayniqsa real raqobat sharoitlaridagi barqarorligini aniqlashga imkon beradi, kelgusi rivojlanish yo'nalishini belgilaydi va ayni paytda tashqi investorlardan moliyaviy yordam olishning muhim vositasi hisoblanadi.

Biznes-reja ichki va tashqi foydalanish uchun tuzilishi mumkin. Ammo ko'pincha u bo'lg'usi homiylar, investorlar uchun, ular bilan investitsiyalar va kreditlar, litsenziya shartnomalari yoki opsiyonlar to'g'risida bitim tuzish uchun, ya'ni mazkur qurilish korxonasi (tashkiloti, firmasi) uchun begona bo'lgan jismoniy va huquqiy shaxslar uchun ishlab chiqiladi.

Aytib o'tilgan talablardan tashqari, biznes-reja quyidagi talablarga ham javob berishi lozim:



3.1.1-rasm. Ishlab chiqarishni tashkil etishga qo'yiladiga talablar

Biznes-rejani ishlab chiqishdan avval korxonaning rivojlanish strategiyasini aniqlash yuzasidan katta ishlarni amalga oshirish lozim. «O'zbekneftegaz» DXK SP-1 korxonasi mutaxassilari biznes-rejani ishlab chiqishlarida quyidagi talablarni e'tiborga olishlarini tavsiya qilimiz:

- korxonadagi vaziyatning haqqoniy, real baholanganligi;
- ishlab chiqilayotgan chora-tadbirlarning aniq yo'nalganligi;
- biznes-rejaning o'z vaqtida ishlab chiqilganligi;
- selektivlik (axborotning tanlab olinishi);

- axborotning ochiqligi, yetarliligi, lo'nda va sodda bayon qilinishi, ikki xil ma'noda tushunish imkoniyatining yo'qligi.

Biznes-reja yangi faoliyat turlarini asoslash uchun emas, balki quyidagi hollar uchun ham tuzish mumkin:

- * yangiliklarni joriy qilish;
- * korxonaning yangi va mavjud mahsulot bilan yangi bozorga chiqishi;
- * investorlarni jalb qilish;
- * aniqlik va mantiqiy izchillik;
- * dalillarning ishonchliligi, muayyanligi va lo'ndaligi;
- * barcha moddalarning asoslanganli va ularning reklama uchun jozibadorligi.

Bir so'z bilan aytganda, biznes-reja - bu cho'qqiga ko'tarilmoqchi bo'lgan alpinistlar uchun yo'nalishlar ko'rsatilgan o'ziga xos harita bo'lib, ularning mashqlarini kadrlar tayyorlash tizimiga, ularning asbob-anjomlari va kiyim-boshlarini esa ishlab chiqarish fondlariga o'xshatish mumkin. Cho'qqining zabt etilishi alpinistlarning o'ziga va ekspeditsiya uchun qulay bo'lgan va go'yoki tadbirkorlikdagi tavakkalchilikning modeli bo'lgan ob-havo sharoitlariga bog'liqdir.

Biznes-rejani tuzishda korxona rahbarining shaxsan ishtiroq etishi juda muhimdir. Xorijiy tajribadan ma'lum bo'lishicha, barcha banklar, investitsiya firmalari va ularga tenglashtirilgan organlar biznes-reja boshdan-oyoq chetdan taklif qilingan maslahatchi tomonidan tayyorlanib, rahbar tomonidan faqat imzolanganligi ma'lum bo'lib qolsa, mablag' ajratish so'ralgan arizalarni ko'rib chiqishdan bosh tortar ekanlar.

Ammo bu maslahatchilarning xizmatlaridan mutlaqo foydalanish kerak degani emas, aksincha ekspertlarni jalb qilish juda yaxshi bo'ladi. Gap bu yerda biznes-rejani tuzishda korxona (firma) rahbarining, ya'ni yangi biznes faoliyatini tashkil qiluvchi yoki o'z korxonasini rivojlantirishni istayotgan kishining shaxsan ishtiroq etishi juda muhimligi haqida bormoqda.

Bozor iqtisodiyoti, ba'zi mutaxassislar, ayniqsa bozor tarafdorlari o'ylaganidek, xo'jalik yuritishdagi qurilish ishlab chiqarishini samarali investitsiyalash va tashkil qilishda o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan avvaldan o'ylab qo'yilgan qarorlarning zaruriyatini inkor qilmaydi, balki aksincha, kuchaytiradi.

Rejalashtirish - kapital qo'yilmalar va qurilishni prognozlashning tarkibiy qismidir. qurilish industriyasining quyi pog'onasidagi korxonalar va tashkilotlar miqyosida u optimal rivojlanish rejalarini ishlab chiqishda o'z aksini topadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirishga nisbatan avvalgi buyruqbozlik yondashuvi yo'q, unda amaldagi qonunchilikda tasdiqlangan me'yorlardan tashqari avvaldan tasdiqlanadigan nazorat raqamlari, limitlar va qat'iy me'yorlar bo'lmaydi, bu esa ishlab chiqilayotgan qurilish dasturlarining ilmiy asoslanganligini va realligini taqozo qiladi.

Qurilishni va qurilish tashkilotlarini rivojlantirish rejalarini texnik-iqtisodiy asoslash zarurligi miqdoriy va sifat, natura va qiymat, hajmiy va solishtirma ko'rsatkichlar tizimi mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Yangi investitsion qo'yilmalar, "nou-xau", qurilishning yangi turlarini o'zlashtirish ko'pincha maqsadi yoki pirovard funktsiyalari bilan farq qiluvchi biznes-rejalar yoki biznes-loyihalarni ishlab chiqishni talab qiladi.

3.2. «O'zbekneftgaz» DXK SP-1 korxonasining rentabelligini oshirish yo'llari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev ananaga aylanib qolgan Oliy Majlisga Murojaatida 2019 yilni "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" deyu e'lon qildilar hamda 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar oldimizga qo'ydilar. Ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish uchun quyidagi oltita vazifalarni amalga oshirish zarur ekanligini ta'kidlab shunday dedilar: "Oltinchidan, aholi turmush sharoitini yaxshilash, uni munosib turar-joy bilan ta'minlash, xalqimiz farovonligini oshirish doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Kelgusi yilda ham arzon uy-joylar qurish dasturi izchil davom ettiriladi.

Namunaviy uylarning loyihalarini takomillashtirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni qo'llash, zamonaviy va arzon qurilish materiallaridan foydalanishga, alohida ahamiyat berish kerak"⁵. Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyevning oldimizga qo'ygan ushbu vazifalari «O'zbekneftgaz» DXK SP-1 korxonasining rentabelligini oshirishni ta'minlaydi. Rentabellik qurilish tashkiloti ishlari samaradorligining baholash ko'rsatkichi hisoblanadi. Agar qurilish tashkiloti, qolaversa har qanday boshqa korxona ham o'z ishlab chiqarish faoliyatidan foyda olsa, uni daromadli hisoblash mumkin. Lekin foyda bilan qiyoslanganda rentabellik – bu foizlarda hisoblanuvchi nisbiy ko'rstkichdir. Qanchalik mahsulot va ishlab chiqarishga sarf-xarajat kam bo'lsa, shuncha ko'p foyda, mahsulot rentabellik darajasi yuqori bo'ladi.

Qurilish mahsulotini rejalashtirish va hisoblash amaliyotida quyidagi rentabellikning ko'rsatkichlari hisoblanadi:

- smeta bo'yicha rentabellik darajasi;
- rejadagi rentabellik darajasi;
- haqiqiy rentabellik darajasi;


⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
www.turkiston.uz

Smeta bo'yicha rentabellik darajasi smeta foydasi yoki rejali jamg'armalarni qurilishning (ob'ekt, qurilish-montaj ishlari, xizmatlari) smeta qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi. Rejadagi rentabellik darajasi qurilish tashkilotlari faoliyat natijalari bo'yicha istiqbolni belgilash (prognozlash) maqsadlariga hizmat qiladi. Haqiqiy rentabellik - qurilish tugatilishi va bajarilgan ishlar bo'yicha butun hisob-kitoblar o'tkazishdan keyin belgilanadigan umumlashtiruvchi samara ko'rsatkichidir.

Mexanizatsiyalashtirish trestlari va korxonalari uchun hamda ishlarni o'z hisobidagi mashina va mexanizmlar parki orqali bajaruvchi qurilish tashkilotlari uchun rentabellik darajasi quyidagi formula bo'yicha foydaning (F_b) asosiy ishlab chiqarish fondlari (F_{as}) va aylanma mablag'lar (F_{ayl}) yig'indisiga nisbati orqali aniqlanadi:

$$R_{4q} = F_b / (F_{as} + F_{ayl}) * 100\% \quad (3.2.1)$$

Hozirgi vaqtda mahsulot rentabelligi darajasini oshirish va foydaliligini ta'minlash har bir pudratchi tashkilot uchun muhim masala hisoblanadi, ustiga ustak uning ko'p masalalari o'tmishdagi xo'jalikni boshqarishning sotsialistik amaliyotidek davlat mablag'i hisobidan emas, xususiy ishlab topilgan mablag' hisobidan hal qilinadi. SHuning uchun ular nafaqat ko'p «ishlab topishga», foydani ko'paytirish va rentabellik darajasini oshirishga harakat qilishlari, balki, tejashni, xususiy ishlab topilgan mablag'dan oqilona foydalanishni bilishlari kerak.



3.2.1-rasm. «O'zbekneftegaz» DXK SP-1 korxonasida foydani ko'paytirish va rentabelligini o'stirishning eng muhim yo'nalishlari

«O'zbekneftegaz» DXK SP-1 korxonasida foydani ko'paytirish va rentabelligini o'stirishning quyidagi eng muhim yo'nalishlarini tavsiya etamiz:

- bahoni shakllantirish mexanizmi va foydani shakllantirishni takomillashtirish;

- mehnat unumdorligini oshirish;
- ishlab chiqarish fondlaridan, birinchi navbatda, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash;
- ishlab chiqarishning uzviyligini ta'minlash;
- qurilish muddatlarini qisqartirish va amalda ob'ektlarni ishga tushirishni tezlashtirish;
- qurilish-montaj ishlari tannarxini pasaytirish va ularni sifatini yaxshilash.

Yuqoridagalarga hulos qilib shuni aytish mumkinki, foyda - qurilish industriyasi korxonalari va tashkilotlarining ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati natijalarini aks ettiruvchi yakuniy ko'rsatkichdir. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha qurilish korxonasining moliyaviy barqarorligi va uning keyingi rivojlanish imkoniyatlari belgilanadi.

Foyda korxona va umuman butun tarmoqni rentabellik darajasi va zarar ko'rishini (foйда yo'q vaqtida) aniqlash imkoniyatini beradi. U ishlab chiqarish xarajatlari bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq: qancha xarajat kam bo'lsa (sifatga ziyon yetkazmasdan), shuncha foyda ko'p va rentabellik darajasi yuqori bo'ladi.

Qurilishning smeta qiymati avvaldan kafolatlangan foyda normasini hisobga oluvchi qurilish mahsulotining narxi hisoblanadi. Qurilishning smeta qiymatini kamaytirish – loyihalovchi, quruvchi tashkilotlari va investitsion jarayonning boshqa ishtiroqchilarining muhim vazifasi hisoblanadi.

Smeta qiymati kapital mablag'larga talabni belgilash, buyurtmachi tomonadan moliyalashtirishni boshlash, bajarilgan ishlarga hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos bo'lib hisoblanadi. O'z navbatida u baho belgilashga, investitsion jarayonning hamma bosqichlarda tejash rejimiga amal qilishga, qurilishda va loyihalashtirishda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot yutuqlaridan muvafaqiyatli foydalanishga bog'liq bo'ladi.

Bozor munosabatlari sharoitida qurilish industriyasi korxonalari va tashkilotlarining vazifasi asosiy fondlar hamda ishlab chiqarish quvvatini o'z

vaqtida va sifatli ishga tushurish asosida xarajatlarni kamaytirish, foydani oshirishdir. Rentabellik ko'rsatkichi qurilish korxonasining belgilangan samaradorlik natijasida harakat qilishga intilishini aks ettiradi.

Xulosa va tavsiyalar

Respublikamizda tub islohotlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Iqtisodiyotning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlashda kelgusi davr uchun puxta va har tomonlama asoslangan chora-tadbirlar, muhim vazifa va yo'nalishlar, turli darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlarning ishlab chiqilishi va aniq belgilab olinishi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimiz hukumati ishlab chiqarishda samaradorlikni oshirishga va maxsulot tannarxini pasaytirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Har bir yo'nalish bo'yicha yaratilayotgan moddiy qiymatliklar bugungi kun nafasidan kelib chiqqan holda sifatli va hamyonbop mahsulotlar bo'lmog'i lozim. Agar bu aksiomaga qarshi chiqilsa, iqtisodiyotning "ko'rinmas qo'li" shu ortiqcha qismni xuddi shifokor zaxolangan qismni olib tashlaganday tashqariga chiqarib yuboradi.

O'zbekistonda keyingi yillarda olib borilayotgan tizimli ishlar keng jahon hamjamiyati iqtisodchilari ongida ijobiy fikrlarni uyg'ota oldi. Bu respublika iqtisodiyotiga yangicha fikrli va shijoatli kadrlarning kirib kelganini anglatadi. Barcha qilinayotgan ishlar davlat tomonidan ishlab chiqilayotgan uzoq muddatli strategik dasturlar zahirida sodir bo'lmoqda.

Qilinishi kerak bo'lgan ishlarning safida muhim hisoblangan, ishlab chiqarish korxonalarida chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxi asosiy rol o'ynaydi. Tannarx omili har doim tahlil qilinishiga qaramay u o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Talabalarining bitiruv oldi amaliyotini to'g'ri tashkil qilish bo'lajak yosh mutaxassislarni real ishlab chiqarish sharoitlariga tayyorlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev ham 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy

Majlisga Murojaatnomasida shunday dedilar: “Namunaviy uylarning loyihalarini takomillashtirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni qo'llash, zamonaviy va arzon qurilish materiallaridan foydalanishga, alohida ahamiyat berish kerak”⁶.

Bozor islohotlari amalga oshirilayotgan sharoitda mustaqil fikrlovchi ishchilarning mavjudligi davr taqozosi hisoblanib, o'z shaxsiy dunyoqarashiga ega bo'lgan insonlarga jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladigan ko'plab loyihalarni ishlab chiqishga qodir ekanligini ko'rsatadi. SHunday qilib, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, yerga, mulkka egalik hissini tarkib toptirish orqali ularda iqtisodiy bilim va iqtisodiy fikr yuritishning ham erkinlashuviga erishish mumkin. Boshqacha aytganda, iqtisodiy hayotni erkinlashtirishning muvaffaqiyati har bir ishchi - xodimning mulkka bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirib, iqtisodiy kompetentligini yanada kuchaytiradi.

Real sektor korxonalarida xo'jalik yuritish samaradorligiga o'z imkoniyatlari va yuzaga keluvchi iqtisodiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda yondoshish talab etiladi.... Samaradorlikka erishishning hamma uchun to'g'ri keluvchi yagona yo'li- “oltin formulasi” yo'q. Korxona rahbarlarining asosiy vazifasi barcha faoliyat turlarida samaradorlikka erishish yo'llarini qidirishdir. Boshqacha aytganda: rahbarlar ijodkor, tadbirkor bo'lishlari kerak. SHuning uchun ham boshqarish ilmini san'at deb ataydilar.

Korxona rahbarlarining oldiga quyilgan ushbu vazifalarni samarali bajarish esa ko'plab omillarga bevosita bog'liq bo'ladi. Yuqorida bayon etilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, Bitiruv malakaviy ishimiz uchun tanlab olingan “Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish” (“O'zbekneftegaz” DXK. ST-1 korxonasi misolida) mavzusi, hozirgi kunda iqtisodiyot va boshqarish fani oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018y. www.turkiston.uz

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi, iqtisodiyotning real sektori korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Ushbu masalalarni amalga oshirish uchun quyidagi asosiy vazifalarni bajarishni oldimizga maqsad qilib qo'yilgan edi va ma'lum darajada bajarildi:

- Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning mohiyati ochib berildi;
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni va ishlab chiqarish bo'g'inlarini boshqarishning o'ziga xos tomonlari;
- Ishlab chiqarishning klaster usuli innovatsion iqtisodiyotning asosiy yo'nalishi sifatida ko'rsatildi.
- «O'zbekneftegaz» DXK SP - 1 korxonasiga tashkiliy – texnik tavsif va boshqaruv strukturasi tahlil qilindi;
- «O'zbekneftegaz» DXK SP - 1 korxonasining 2016 -2018 yillardagi asosiy texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili qilindi;
- «O'zbekneftegaz» DXK SP - 1 korxonasida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etilishining tahlili etildi;
- «O'zbekneftegaz» DXK SP-1 korxonasida ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirish yo'llari ko'rsatib berildi;
- «O'zbekneftegaz» DXK SP-1 korxonasining rentabelligini oshirish yo'llari belgilab berildi.
- Yakuniy xulosa qilish va tavsiyalar berildi.

Ilmiy tadqiqotlarimiz ob'ekti bo'lgan «O'zbekneftegaz» Davlat xolding kompaniyasi 1 - strukturaviy korxonasining 2016-2018 yillardagi faoliyati atoflicha o'rganib chiqildi.


Yuqoridagi 2.2.1 – jadvalda ko'rinib turibdiki, korxona qurilish montaj ishlarini yildan yilga bir ma'romda barqaror o'stirib kelmoqda. Agar korxona 2016 yili 35200,5 mln.so'm qurilish montaj ishlarini bajargan bo'lsa, keyingi 2017 yilda

esa bu ko'rsatkich 120,77 foizga ko'paytirilib, qurilish montaj ishlarining hajmi 42510,7 mln.so'mga yetkazildi. Uchinchi yili, ya'ni 2018 yilda qurilish montaj ishlarining hajmi 52100,7 mln.so'mga yetkazilib, bu ko'rsatkich bazis yilga nisbatan 148,01 %ga ko'paytirildi.

«O'zbekneftgaz» DXK SP-1 korxonasi faoliyatini yrganганимизда, у ерда Бизнес-rejani ishlab chiqishga етралича эътибор бермаслиги ва корхонага тааълуқли ахборотлар танлашда эътиборсизлик эканликлари аниқланди. Бизнес-rejani ishlab chiqishdan avval korxonaning rivojlanish strategiyasini aniqlash yuzasidan katta ishlarni amalga oshirish lozim.

«O'zbekneftgaz» DXK SP-1 korxonasi mutaxassislariga biznes-rejani ishlab chiqayotganlarida quyidagilarni amalga oshirishlarini tavsiya qilamiz:

- tashkilotning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini atroflicha tahlil qilish, uning kuchli va zaif jihatlarini va xatarlarini aniqlash – SWOT tahlilini o'tkazish;
- muayyan iqtisodiy vazifalarni amalga oshirishda foydalaniladigan muayyan moliyaviy, texnik-iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni o'rganish;
- tannarx va foydani tahlil qilish, barcha turdagi harajatlarni, solqlarni va ishlab chiqarishni rivojlantiruvchi boshqa omillarni hisobga olish;
- bozordagi vaziyatlarni baholash, potentsial investorlarni (buyurtmachilarni) tanlash, qurilish tashkilotining faoliyatini barqarorlashtiruvchi asosli va o'zoq muddatli bitimlar tuzish.



X.1-rasm. «O'zbekneftegaz» DXK SP-1 korxonasida foydani ko'paytirish va rentabelligini o'stirishning eng muhim yo'nalishlari

Korxonalar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirishda ishlab chiqarish jarayonlarini ratsional tashkil qilish, jumladan, ushbu jarayonlarni to'g'ri boshqaruv ham muhim o'ringa ega. Ularning ahamiyati ishlab chiqarish miqyosining o'sishi va xo'jalik aloqalarining murakkablashishi bilan ortib boradi. Bu omillar qatoriga birinchi o'rinda, oqilona ishlab chiqarish shakllarini yaratish va

mavjudlarini takomillashtirish - kontsentratsiya, ixtisoslashtirish, kooperatsiya va kombinatsiya qilishni kiritish mumkin.

Fan-texnika taraqqiyoti so'nggi paytlargacha evolyutsion ravishda rivojlanib asosiy e'tibor amaldagi texnologiyalarni takomillashtirish, mashina va uskunalarni qisman zamonaviylashtirishga qaratilgan edi. Bunday chora-tadbirlar ma'lum bir cheklangan natijalarga olib kelardi.

Tavsiya etilgan tadbirlar "O'zbekneftegaz" DXKning SP-1 korxonasi rahbariyati va mutaxassislarida katta qiziqish uyg'otdi va faoliyatiga tadbiq etish ko'zda tutilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishimizni yozish davomida va bitiruv oldi amaliyotini o'tash davrida yaqindan yordam bergan va qimmatli maslahatlarini ayamagan "O'zbekneftegaz" DXKning SP-1 korxonasi rahbariyatiga va tajribali yetuk xodimlariga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar va Internet saytlari

ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2001
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 28.12.2018 y. www.turkiston.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 22.12.2017 y. www.turkiston.uz
4. SH. Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” «O'ZBEKISTON» NMIU, 2016
5. I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch» - T.: «Ma'naviyat», 2008.
6. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti: O'quv.qo'll. –T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004.
7. «O'z Ishingizni yarating yoki tadbirkor nimalarni bilishi lozim» - Toshkent shahri, YuNIDO, «Biznes maslahat markazi» loyihasi, 2003y.
8. Abdulkarimov I.T. va boshqalar. Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili. T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2003.
9. Заработная плата на предприятии / Хасанов Н.Х., Хайдаров СХ.У, Югай Л.П. – Т.: издательский дом “Мир экономики и права”, 2004
10. Экономика предприятия. 3-е изд., перераб. и доп. Учебник для вузов / Под ред. проф. В.Я. Горфинкеля, проф. В.А.СХвандара М.: ЮНИТИ-ДАНА 2004.
11. Махмудов Э.Х. Методы и стиль работы современного руководителя // Народное слово. - 2004. - 18 апрел.
12. Махмудов Э.Х. Реформы и человеческий фактор // Народное слово. - 2005. - 9 июн.
13. Мескон М. и другие. Основы менеджмента. Пер с англ. -Москва: «Дело», 1992
14. Tuxtaboev A.T., Eraliev A.A. Tashkiliy xatti-harakatlar. Qo'llanma.- Andijon: «Hayot», 2001

15. SHokarimov R.B. Korxonalarda moliyaviy va statistik ma'lumotlari bilan ishlash. Toshkent. "SHarq"
16. «O'zbekneftegaz» Davlat xolding kom'aniyasi 1 - korxonasining moliyaviy-iqtisodiy va arxiv ma'lumotlari
17. <http://senat.uz/>
18. <http://www.budgetrf.ru/>
19. <http://www.press-service.uz>
20. <http://www.gov.uz/>